

PANJIYEVA M.
TOSHPO'LATOVA N. SH.

STEAM TA'LIM ASOSLARI



Science • Technology • Engineering • Arts • Mathematics

O'QUV QO'LLANMA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

PANJIYEVA MUATTAR XXX
TOSHPO'LATOVA NIYOHON SHAVKATOVNA

STEAM TA'LIM ASOSLARI
(tanlov fani)

O'QUV QO'LLANMA



Denov – 2026

KBK: 74.202.4ya73

UO'K: 373.3.015.31(075.8)

P 19

Panjiyeva M., Toshpo'latova N. Sh. STEAM TA'LIM ASOSLARI: O'QUV QO'LLANMA. Termiz: Termiz publishing center. 2026 - 157 b.

O'quv qo'llanmada umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida STEAM yondashuvi asosida integratsiyalashgan ta'limni takomillashtirishning nazariy-metodik asoslari yoritilgan. Qo'llanmada o'quvchilarni fanlararo integratsiya mazmunida o'qitishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning didaktik xususiyatlari, mazmuni, shakllari, metodlari va vositalari tizimli tahlil etilgan. Shuningdek, o'quv fanlarini STEAM integratsiyasi asosida takomillashtirish yo'llari, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlikni shakllantirishning intellektual, hissiy va emotsional jihatlari, ularning o'quv-biluv faoliyati samaradorligini oshirish masalalari o'z ifodasini topgan. Qo'llanmada o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini fanlararo STEAM integratsiyasi asosida shakllantirish, ularning mohiyatini anglash, o'quv fanlari mazmunidagi ilmiy tushunchalarni yaxlit tasavvur qilish hamda amaliyotga tatbiq etish orqali nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari, malakalari va kompetensiyalarini rivojlantirishga oid manbalar bayon etilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bakalavr talabalari, umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchi va o'quvchilari uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Norbo'tayev Xo'shboq Bobonazarovich

Taqrizchilar:

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toshpo'latova Niyohon Shavkatovna

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Shokir Maxmudov Kamolovich.

2026-yil 26-yanvardagi o'quv adabiyotini ekspertizadan o'tkazganlik
natijasi bo'yicha nashrga tavsiya etildi.

ISBN: 978-9910-13-135-6

© TERMIZ PUBLISHING CENTER, 2026-yil
© Panjiyeva M., Toshpo'latova N. Sh.

2

KIRISH

Jahon ta'lim tizimidagi global muammolardan biri o'quv jarayonini integratsiyalash va takomillashtirish hisoblanadi. STEAM yondashuvi aynan fanlararo integratsiyasidagi tarkibiy bog'lanishni mustahkamlash, ularni umumlashtirish, o'quvchilarning tabiat va jamiyat to'g'risidagi yaxlit tasavvurlarini yanada boyitishga xizmat qiladi. Integratsiyalash muammosini ijobiy hal etish ta'lim muassasalari o'quv jarayonida zamonaviy axborot va innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish bilan bevosita bog'liqdir. Mazkur jarayonni to'g'ri tashkil etish ta'lim samaradorligini oshiribgina qolmasdan, o'qitishning loyihaviy-yaratuvchanlik modeli asosini ham ta'minlaydi.

Jumladan, dunyo miqyosida fanlararo STEAM integratsiyasi mazmunidagi bilimlarni rivojlantirish uchun asos bo'luvchi integratsiyalangan fanlar ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu, ayniqsa, jahon hamjamiyatida o'quvchilarda ilmiy tafakkurni rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida qaraladi. Shu bois, xalqaro ta'lim dasturlariga asoslangan holda STEAM integratsiyasini uyg'unlashtirish, o'zaro fanlararo bog'liqlikni takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida fanlar integratsiyasini takomillashtirish o'quvchi yoshlarda o'quv-bilish faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bunda o'quvchilar tanish fan bilimlarini noma'lum munosabatlarni izlashga yoki fanlararo integratsiya mazmunida yangi tushunchalarni shakllantirishga safarbar qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da "o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, ta'lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish" vazifalari belgilangan. Bu borada fanlararo integratsiya o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini o'zlashtirish sohasida ham, ijodiy faoliyat va borliqdagi obyektlarga hissiy-qadriyatli munosabatni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

3

DENOV TADBIRKORLIK
VA PEDAGOGIKA
INSTITUTI ARM
№ _____

Xususan, STEAM integratsiyasi o'quv-tarbiya jarayonining barcha tarkibiy elementlarini (mazmun, shakl, metod va vositalarni) yaxlit bir tizimga birlashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'limda integratsiya va differensiasiya mavjudligining obyektiv qonuniyati integrativ-differensial yondashuv qoidalarida mustahkamlanadi. Bu qoidalar ta'lim tizimining barcha komponentlari birligi va uzviyligini asoslaydi. Muammo ta'lim tizimida integratsiya va differensiasiya jarayonlari o'rtasida dinamik muvozanatga erishishdan iborat. Uni hal qilish uchun konvergent strategiya produktiv hisoblanadi, chunki u ta'lim jarayonining barcha tashkiliy va mazmuniy komponentlarini ta'limning eng yuqori sifatiga erishish maqsadida uyg'unlashtirishga qaratilgan.

Shuningdek, bilish jarayonining tavsifi sifatida "integratsiya" tushunchasi ko'p jihatlilik va muvofiqlik xususiyatiga ega bo'lib, bu ilmiy nazariyani tadqiqot obyektiga aylantiradi. Shu bois, integratsiyaning ko'p ma'noli ta'riflari, uning shakllari, funksional xususiyatlari va mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. STEAM ta'limida esa bu jarayonlar nafaqat nazariy bilimlarni, balki ularni amaliyotga tatbiq etish orqali o'quvchilarning kreativlik, tanqidiy tafakkur va innovatsion faoliyatini rivojlantirishni ta'minlaydi.

I BOB. BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMIDA INTEGRATSIYANING MAQSAD VA VAZIFALARI

1.1-§ STEAM ta'lim texnologiyasining mazmuni va mohiyati

"STEAM - fan va texnika, muhandislik va matematika elementlariga asoslangan, san'at bilan quvnoqlashgan ta'lim texnologiyasi" deya ta'riflagan Georgette Yakman. Zamonaviy bolalar axborotlashtirish va kompyuterlashtirish davrida yashamoqda. Tez o'zgaruvchan hayotda insondan nafaqat bilimga ega bo'lish, balki, birinchi navbatda, bu bilimlarni puxta anglab olish, amaliy tajriba va loyihalar ustida ishlash, mustaqil, ijodiy fikrlash qobiliyati talab etiladi. Har qanday texnologik yangiliklardan nafaqat kattalar, balki maktabgacha yoshdagi bolalar ham faol foydalanmoqda.

Har bir bola potensial ixtirochi. Bolalar kichik yoshdan boshlab motorli va harakatli o'yinchoqlarga, robototexnikaga, qurish-yasash konstruktorlik materiallari bilan ishlashga, jonli va jonsiz tabiat bilan tajribalarga qiziqishadi, o'yinchoqlarini buzib ular qanday tuzilgani, qanday ishlashini tushunishga harakat qilishadi, yani; nima uchun g'ildiraklar aylanadi, chiroqlar yonadi, ovoz chiqaradi kabi savollariga javob topishga urinadilar. Bolalarning to'g'ri tashkil etilgan texnik ijodiyoti bu qiziqishni qondirishga va yosh avlodni foydali amaliy faoliyatga jalb qilishga imkon beradi. Siz o'qituvchi sifatida kelajakka hozir, bugun ta'sir qilyapsiz. Siz kelajak dunyomizning bo'lajak mutafakkirlari, innovatorlari va ijodkorlarini ta'lim tarbiyasi bilan mashg'ulsiz.

Biz oldinda qanday yangi texnologiyalar yoki sohalar borligini aniq aytib bera olmaymiz, lekin biz farzandlarimizga muvaffaqiyatga erishish uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berib, ularning porloq kelajagiga bugun zamin yaratishimiz mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limini rivojlantirishning hozirgi bosqichida asosiy e'tibor bolaning shaxsiyatini har tomonlama rivojlantirishga qaratilmoqda ya'ni; qiziquvchanlik, maqsadlilik, mustaqillik, mas'uliyat, ijodkorlik, bolalarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlash, shaxsning va natijada jamiyat hamda davlatning raqobatbardoshligini oshirish. Ijodkorlik va innovatsiyalarni rag'batlantiradigan ushbu keng qamrovli ta'lim falsafasi

maktabgacha yoshdagi bolangizni kelajakka tayyorlashga qanday yordam berishi mumkinligini bilish uchun o'qing va o'rganing. Siz maktabgacha yoshdagi bolangizga o'z dunyosini kashf qilish, savollar berish, o'z tadqiqotini amalga oshirish, kashfiyotlar qilish va muammolarni hal qilishda yordam berish yo'llarini qidiraysizmi?

Unda STEAM ta'lim texnologiyasini an'anaviy ta'limdan afzalliklarini bilib oling. Ta'lim - bu bizning dunyomiz o'zgarib, so'nggi tadqiqotlar asosida yangi nazariyalar va amaliyotlar joriy etilayotganda izchil rivojlanib borayotgan jarayondir. Stem - maktab ta'limining qisman modulli dasturi bo'lib, u kognitiv faoliyat jarayonida intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishga, ilmiy-texnik ijodkorlikka jalb qilishga qaratilgan. STEM treningining yetakchi tarkibiy qismi eksperimental muhandislik faoliyati bo'lib, o'yin shaklida bolalar kommunikativ ko'nikmalarni, sanashni, o'lchashni, taqqoslashni, loyihalashni o'rganadilar.

Tanish obyektlardagi o'zlari uchun ma'lum va noma'lum bo'lgan yangi xossalarni aniqlaydilar. Dastlab, ushbu yondashuv oddiygina ijodiy qisimsiz STEM deb nomlangan, ammo san'at keng qamrovli rivojlanish uchun juda muhimligi isbotlanib, A harfini qisqartmaga qo'shishga qaror qilindi. A- art- san'at ijodiy fikrlash, tasviriy san'at asoslari, naqsh yaratish, rang berish, loy ishi, haykaltaroshlik san'atning modellashtirish bilan qanday bog'lanishini namoyish etadi. STEAM - ta'lim texnologiyasi orqali bolada kreativlik, qunt, qiziquvchilik va hozirgi kunda eng muhim bo'lgan xususiyat - muammoni hal qilish (problem solving skills) qobiliyati shakllanadi.

"STEAM fikrlash" bolalikdan boshlanadi. Bola yurishni bilmagan paytida ham jarayonlarning bog'liqligi, ketma-ketligi va ehtimollikni tushuna oladi. Ushbu xususiyatlar kattalar tomonidan har tomonlama rag'batlantirilishi, kerakli bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlarni vaqtida berilishini talab qiladi. Ular atrofda dunyoga va o'rganishga qiziqib, turli xil vositalar (qalamlar, flomasterlar, bo'yoqlar va boshqa badiiy materiallar, blokklar, dramatik o'yin materiallari, miniatyura hayotiy figuralar) va ijodiy harakatlar, qo'shiq aytish, raqsga tushish va o'zlarining ijodiy

qobiliyatlaridan foydalangan holda yaratish va muloqot qilish qobiliyatlarini o'rganmoqdalar.

STEAM ta'lim texnologiyasining modullari, Raqamli texnologiyalar ularga o'z ijodkorlik va o'rganish qobiliyatini namoyish qilish uchun yana bir imkoniyat yaratadi. STEAM - bu fanlararo integratsiyalashgan yondashuv bo'lib, STEM fanlarini tadqiqot, ijodiy fikrlash va liberal san'at muammolarini hal qilish usullari orqali o'rganadi. Shunday qilib, STEAM loyihalari fanga asoslangan bo'lsa-da, ular qiziquvchanlik, tasavvur va badiiy ifoda uchun joy qoldiradi. Yondashuv sifatida STEAM ta'limi bolaning ijodkorligi va o'zini namoyon etishini rag'batlantirish, shuningdek, ularning statistik va raqamli qobiliyatlarini, shuningdek, muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. STEAM ta'lim texnologiyasi uzluksiz ta'lim jarayonida innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun mo'ljallangan o'zaro bog'liq va integratsiyalashgan o'quv dasturlarini yaratishga qaratilgan.



STEAM texnologiyasi - "Matematik elementlarga asoslangan muhandislik va san'at orqali talqin qilingan fan va texnologiya" degan ma'noni anglatadi va har bir mavzu shu beshta fan bilan integratsiyalashuviga asoslanib, nazariy va amaliy ko'nikmalarning uyg'unligiga mo'ljallangan. Bola bir vaqtning o'zida bir nechta bilim sohalarini qamrab oladi, berilgan ma'lumotlardan foydalanish, o'z tajribasida faktlarni tekshirish imkoniyatini oladi.

Rita Rossi Kolvell (1934-yil 23-noyabrda Massachusetts shtatining Beverl shahrida tug'ilgan) amerikalik olim, mikrobiolog va okeanograf. 1990 yillarda u Prezident R. Reygan tomonidan Milliy ilmiy kengash a'zosi bo'lgan va STEM ta'limini fanga kiritishni taklif qilgan. 1998-2004 yillarda Milliy fan fondiga raislik qilgan birinchi ayol edi. STEM yondashuvi 2001-yilda AQSh Milliy fan fondi olimlari tomonidan amaliyotda qo'llash taklif qilingan.

STEM yondashuvi 2001-yilda AQSh Milliy fan fondi olimlari tomonidan amaliyotda qo'llash taklif qilingan. Ushbu texnologiya natijalari samarali bo'lib chiqdi va boshqa ko'plab mamlakatlar tadqiqotchilarining e'tiborini tortdi. STEAM - kashfiyotchilar, innovatorlar va rahbarlarning kelajak avlodi bo'lib, olimlar sifatida tadqiqot olib borish, texnolog sifatida muhandis rassom matematiklar sifatida sifatida modellashtirish, konstruksiyalash, dizayn yaratish, kabi analitik fikrlash, hamkorlikda yangi g'oyalarni yartish qobiliyatini o'zlashtiradilar. Ta'lim faoliyati to'g'ri qo'llab-quvvatlansa, atrofda dunyo ob'ektlari va hodisalarini o'z dizaynida ijodiy aks ettirish maktabgacha yoshdagi bola uchun qiyin bo'lmaydi.

Bolalarga texnik mahsulot yoki jismoniy hodisaning mohiyatini tushunishga yordam beradigan amaliyotga yo'naltirilgan STEAM va tadqiqot loyihalarini amalga oshirish orqali texnik va ilmiy fikrlash asoslarini shakllantirish, bu maktabgacha yoshdagi bolalarga o'z qarorlarining maqsadga muvofiqligi va istiqbollarini baholash imkonini beradi. STEM dasturlari ayniqsa, miyaning chap yarim sharini qamrab oladigan tushunchalarga qaratilgan. Ta'limga san'at va dizaynni qo'shish tarbiyalanuvchilarga miyaning ikkala yarim sharlaridan - analitik va ijodiy foydalanish imkonini beradi.

Miyaning neyroplastikligi hayotning birinchi besh yilida eng kuchli bo'ladi. Bu juda oson o'rganish uchun bebaho qobiliyatdir. STEAM tashabbusi asoschisi Georgette Yakman, STEM qisqartmasiga A-Art- san'atni qo'shish g'oyasini ilgari surishdan tashqari, 2006 yildan buyon STEAM Education asoschisi, tadqiqotchisi va yaratuvchisidir. Hozirda kasbiy rivojlanish va integrativ muammoli ta'limni joriy etish bo'yicha tadqiqotchi, o'qituvchi va siyosat bo'yicha maslahatchi. STEAMni "Fan va texnika, muhandislik va matematika elementlariga asoslangan, san'at bilan quvnoqlashgan ta'lim texnologiyasi"- deya ta'riflaydi.

U o'qituvchilarga STEAM tizimidan qanday foydalanish bo'yicha dasturlar va malaka oshirish uchun treninglar taqdim etib kelmoqda. 2009-yilda senator Mark Uomer Yakmanning harakatlarini e'tirof etib, "STEAM 2009" "Yilning eng yaxshi o'qituvchisi" nominatsiyasi g'olibi deb e'lon qildi. G.Yakman kiyim kechak va to'qimachilik bo'yicha bakalavr darajasiga, texnologiya ta'limi STEAM bo'yicha -

magistr darajasiga ega. U davr va tarixiy uylarning me'moriy dizayneri bo'lib ishlagan, o'qituvchi bo'lgandan keyin AQSHning barcha xududida, 38ta xorijiy mamlakatlarda STEAM dasturlarini ishlab chiqishda yordam beruvchi maslahatchi bo'ldi va butun dunyo bo'ylab 3000 dan ortiq o'qituvchilarni o'qitdi. G.Yakman ko'plab xalqaro tashkilotlar tomonidan mukofotlar, nutq takliflari, intervyular va akademik ma'lumotnomalar bilan tan olingan.

STEAM kuni 2015-yildan buyon 8-noyabr AQSHda milliy bayram sifatida nishonlanadi. 8 noyabr - STEAM ta'limi kuni (STEM / STEAM Day). Ilmiy, texnik, muhandislik, badiiy va matematik qobiliyatlari kuchli bolalar hayotda ko'proq yutuqlarga erishadilar. Shuning uchun STEM va STEAM ta'lim dasturlari juda muhimdir. Hech shubha yo'qki, bu fanlar jamiyatni oldinga siljitadi va bu dasturlar ularni bolalarga o'rgatishning qiziqarli va quvnoq usullarini topishga yordam beradi.

Tadbirda nutq so'zlagan MGA Entertainment kompaniyasi bosh direktori Isaak Laryan STEM aslida bizni o'rab turgan hamma narsa ekanligini ko'rsatish naqadar muhimligini ta'kidlab,- "Biz STEM va STEAM allaqachon bolalarning atrofida ekanligini va ularning sevimli mashg'ulotlari aslida ilm-fan, texnika, muhandislik, san'at va matematikaga asoslanganligiga amin bo'ldik"- deya e'tirof etgan. STEAM yondashuvi tufayli bolalar sodir bo'layotgan hodisalar mantig'ini o'rganishlari, ularning o'zaro bog'liqligini tushunishlari, dunyoni tizimli o'rganishlari va qiziqishni, fikrlashning muhandislik uslubini, og'ir vaziyatlardan chiqish qobiliyatini rivojlantirishlari va jamoaviy ish mahoratini rivojlantirishlari bilan an'anaviy ta'limdan farq qiladi va ko'plab afzalliklarga ega.

STEAM ta'lim texnologiyasi Tennessi erta Rivojlanish standartlarida batafsil yoritilgan bo'lib maktabgacha ta'lim dasturlarida aks etishi zarurligi ko'rsatilgan. Agar fanni o'rganib, olim bo'lishni istasangiz, ingliz tilini bilishingiz kerak. Science is fun! Ilm - bu qiziqarli! Ilm-fan bolalar uchun bayramdek hayajonli va qiziqarli bo'lishi kerak. Demak, kelajak texnologiyani, texnologiya kelajagi esa xurofotdan xoli, rasmiy yondashuvni qabul qilmaydigan va o'z bilimlari bilan o'quvchilarning "miyasini portlatib", dunyoqarashini cheksizlikka kengaytira oladigan yangi formatdagi o'qituvchilarnikidir. Kelajak STEAMning buyuk o'qituvchilariga bog'liq!

STEAM ta'limi innovatsiya, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantiradi, natijada har tomonlama rivojlangan, ko'p qirrali, qobiliyatli o'quvchi shaxsi kamol topadi. Bu bolalarni o'rganayotgan narsalari haqida ko'proq fanlar bilan bo'g'lab, yaxlit tarzda o'ylashga undaydi. STEAM orqali bolalar atrofdagi dunyoda harakat qilish uchun ko'nikma va sifatlarni rivojlantiradilar. "Qo'llaringiz siz o'ylaganingizdan ham ko'proq narsani biladi! Sizning qo'llaringiz aqlingiz bilmagan narsani biladi!"

1.2-§. Boshlang'ich ta'limda STEAM yondashuvi asosida kreativlikni shakllantirish

Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Harakatlar strategiyasi"da ta'lim sifatini oshirish, fanlararo integratsiyani rivojlantirish va kreativ fikrlashni shakllantirish masalalari alohida ta'kidlangan. Shuningdek, ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorda innovatsion ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish vazifasi belgilangan. Boshlang'ich ta'limda integratsiyalashgan yondashuvni qo'llash orqali o'quvchilarda nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar uyg'unligini ta'minlash mumkin. Bu jarayon, avvalo, "Ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da belgilangan maqsadlar bilan bevosita bog'liq. Chunki konsepsiyada fanlararo integratsiya, kreativlik va zamonaviy metodikalarni tatbiq etish orqali boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish zarurligi qayd etilgan.

Ilmiy-nazariy qarashlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonini takomillashtirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Jumayev va Xoliqovlarning tadqiqotlarida pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda fanlararo aloqadorlikni ta'minlashda muhim vosita ekanligi ko'rsatilgan. Didaktik tamoyillar hamda ta'lim metodologiyasi masalalari esa Xodjayev va Tursunov tomonidan keng yoritilgan bo'lib, unda

innovatsion yondashuvlar orqali integrativ darslarni samarali tashkil etish yo'llari ko'rsatiladi.

Xorijiy tajribada ham STEAM yondashuvi ta'limda kreativlikni rivojlantirishning muhim metodlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Masalan, Sarah Hillyardning "A Pocket Guide to STEAM" qo'llanmasida boshlang'ich ta'limda fanlararo loyihalash, o'quvchilarni amaliy faoliyatga jalb etish va kreativ muhitni shakllantirish mexanizmlari bayon etiladi. Shuningdek, Kitovanning "Innovatsion ta'lim texnologiyalari" asarida ta'lim jarayonida STEAM yondashuvini qo'llash orqali o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish hamda ularni real hayotiy vaziyatlarga tayyorlash imkoniyatlari ko'rsatilgan.

Shu sababli, ta'limga STEAM yondashuvga o'tish ustuvor vazifaga aylandi. Ta'limda STEAM yondashuv umumta'lim maktablarida sinf-dars tizimidan loyihaviy faoliyatga tomon o'tish, fundamental bilimlarni funksional bilimlarga ko'chirish, ularni amaliyotda faol qo'llash jarayoni orqali fanlar integratsiyasi, kesishmasida muammolar yechimining yangicha yo'llarini izlash, lozim topilsa, kashf etishga yo'naltirish kabi vazifalarni qo'yadi.

STEAM orqali kreativlik shakllanadi. Kreativ (ing. create) - yaratish, kreativlik (creative) - yaratuvchi, ijodkor tushunchalarini anglatadi va yangi g'oyalarni ishlab chiqarish, ijodkorlik qobiliyati ma'nolarini beradi. Kreativ bo'lish mohiyatni yorqin ranglarda ko'rish va ko'rsata bilish demakdir.

Kreativlikka xos xususiyatlar:

- ijodkorlik;
- yaratuvchanlik;
- tashabbuskorlik;
- iqtidorni namoyish etish qobiliyati

Ta'limdagi STEAM yondashuv yangi kasblarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Masalan, Moderator, SEO-mutaxassis (saytlarni yurgizish), Onlayn coordinator, 3D-modellashtirish bo'yicha mutaxassislar, Kosmogeolog, Poligrafiya mahsulotlari bo'yicha verstalshik, Injener, arxitektor, Marketolog (reklamachi),

Fotograf, illyustrator, Dasturchi (IT), Outsorser, konsultant, kouch (biznes trener) STEM iborasi 2000-yildan boshlab faol ishlatila boshlangan.

Jahonda texnika va texnologiyalarning shiddat bilan keskin rivojlanib borishi, fan va ta'lim tizimini yangi hamda zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etishni taqozo etadi. Bunday yondashuvli ta'lim STEM va STEAM ta'limi bo'lib, hozirda ta'lim tizimi rivojlangan Finlandiya, Germaniya, Yaponiya, Xitoy, AQSh va Rossiya davlatlari ta'lim jarayonlariga qo'llanilib kelmoqda. Xususan, dastlab, STEM ta'limi Amerika Qo'shma Shtatlarida America COMPETES qonuni orqali qo'llab-quvvatlandi. Ushbu qonun STEM ta'limini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, STEM ta'limining besh yillik rivojlantirish strategik rejasi (2013-2018) ishlab chiqilgan. Ushbu strategiya tabiiy, aniq, muhandislik va matematika fanlari o'zaro integratsiyasi bo'yicha innovatsion o'qitish uslublarini yaratishga qaratilgan. Shundan so'ng AQSh maktablarida STEM ta'limi dasturlari ishlab chiqilib, o'quv jarayonlariga tatbiq etildi.

Dunyoda muhandislik rivojlanib borayotgan davlatlar amaliyotiga ko'ra nazariy olingan bilimlarni amaliy faoliyat jarayonida foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan yangi STEAM yondashuvli ta'limga katta e'tibor qaratilganini ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son farmoniga ko'ra, innovatsion ta'lim jarayoniga o'tish, zamonaviy kadrlarga bo'lgan ehtiyojni inobatga olish, AKT va ta'lim berishning yangi metodlarini joriy etish, dars jarayonini STEAM ta'lim texnologiyasi talablari asosida tashkil etish, STEAM (tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, dizayn va matematika) fanlarini o'qitish bo'yicha o'quv kurslaridan o'tgan pedagoglar 2023-yilda 10%, 2030-yilga kelib 50%ga yetishi, yangi kasbiy kompetensiyalarni o'zlashtirish uchun zarur bilimlar bazasini shakllantirish kabi vazifalar belgilangan.

Xulosa qilib aytganda, STEAM yondashuvining nazariy-metodik asoslari milliy ta'lim tizimini isloh qilishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, mahalliy

olimlarning ilmiy ishlari va xorijiy tajribalar uyg'unligida shakllanmoqda. Bu esa boshlang'ich ta'lim jarayonida kreativlikni rivojlantirish, fanlararo integratsiyani ta'minlash va o'quvchilarda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kreativlik - shaxsning muammoli vaziyatlardan tafakkuri orqali, takrorlanmas yo'l bilan chiqib ketish, unga ijodiylik bilan yondasha olish qobiliyati hisoblanadi. "Ijodkorlik - bu ko'pchilikka noma'lum va murakkab xususiyatlarni o'rganishga imkon beruvchi tafakkuri va ruhiyatining har xil sharoitlarda jamol ko'rsatishi bilan bogliq o'ziga xos fikrlash faoliyati modeli", "Ijodkorlik - bu aql gimnastikasi, u nafaqat donishmandlargagina kerak va hatto oddiy ijodkor odamga ham zarur", "Ijodkorlik - bu avvalo mehnatga ijodiy munosabatda bo'lishni tarbiyalash, yangi bilimlarni o'zagartirishni uddalay olish, maqsad sari intiluvchanlik, g'alaba uchun kurash, o'z-o'zini takomillashtirish va o'zlikni anglashdir" kabi ta'riflar ijodkorlikning o'ziga xos mohiyati haqida ochib berilgan.

Bugungi kunda ta'lim jarayonining asosiy maqsadlaridan biri - o'quvchilarning ijodiy fikrlashini shakllantirish, ularda yangicha qarash va muammolarni nostandart yecha olish qobiliyatini rivojlantirishdir. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilar shaxsiy sifatlari, intellektual va ijtimoiy-emotsional jihatlarining shakllanishida hal qiluvchi davr hisoblanadi. Shu bois, ushbu bosqichda kreativlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etadi.

STEAM yondashuvi (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) o'quvchilarning kreativ salohiyatini shakllantirishda eng samarali yo'llardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Chunki bu yondashuv fanlarni alohida emas, balki integratsiyalashgan holda o'qitishni taqozo etadi. Bunda nazariy bilimlar amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirilib, o'quvchi turli fanlardan olgan bilimlarini muammoli vaziyatlarda qo'llash imkoniga ega bo'ladi.

Pedagogik manbalarda integratsiya tushunchasi fanlararo bog'liqlikni shakllantirish, bilimlarni yagona tizim sifatida anglash va amaliyotda qo'llash jarayoni sifatida izohlanadi. Boshlang'ich ta'limda STEAM yondashuvi asosida kreativlikni shakllantirish jarayoni aynan shu integratsiyaga tayangan holda amalga

oshiriladi. Masalan, matematika va texnologiya fanlarini uyg'unlashtirib, o'quvchilar oddiy modellar yasash jarayonida nafaqat hisoblash, balki konstruktorlik ko'nikmalarini ham rivojlantiradilar. Bu esa ularning ijodkorligini kuchaytiradi.



Kreativlik nazariy jihatdan shaxsning yangi g'oya, yangicha qarash va mahsulot yaratishga bo'lgan qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun esa kreativlik - ular mustaqil savol bera olish, javob topishga intilish, turli g'oyalarni sinab ko'rish va o'ziga xos yechimlar ishlab chiqishda namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, STEAM yondashuvi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarda:

- qiziqish va motivatsiyani kuchaytirish,
- bilimlarni qo'llash va birlashtirish,
- yangi g'oyalarni sinab ko'rish,
- nostandart yechimlarni topishga intilish sifatlarini shakllantiradi.

Bundan tashqari, kreativlikni rivojlantirishda muammoli ta'lim va loyihaviy faoliyat metodlari katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, tabiatshunoslik darsida "Suv resurslarini tejash" mavzusida loyiha tashkil etilsa, o'quvchilar ilmiy bilimlarni qo'llash (Science), suvni tejash texnologiyalarini o'rganish (Technology), suv aylanishi modelini chizish (Engineering), rasm va maketlar yaratish (Art), matematik hisob-kitoblarni bajarish (Mathematics) orqali integratsiyalashgan faoliyatni amalga oshiradilar. Natijada ularda nafaqat ekologik ong, balki ijodiy tafakkur ham rivojlanadi.

Shuningdek, ta'lim jarayonida differensiyatsiya va integratsiya jarayonlarining uyg'unlashuvi ham kreativlikni rivojlantirishning metodik asosini tashkil etadi. Differensiyatsiya - fanlarni alohida o'rganishga, integratsiya esa ularni yagona tizimda anglashga yordam beradi. Bu ikki jarayon uyg'unlashgan taqdirda o'quvchilar bilimlarni chuqurroq anglaydi va kreativ yondashuvni rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limda STEAM yondashuvi asosida kreativlikni shakllantirish quyidagilarga imkon yaratadi:

1. O'quvchilarning bilimlarni yagona tizim sifatida ko'rish qobiliyatini rivojlantirish.
2. Nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etish ko'nikmalarini shakllantirish.
3. Muammoli vaziyatlarda nostandart, ijodiy yechimlar topa olish qobiliyatini mustahkamlash.
4. Shaxsiy qiziqish, motivatsiya va intellektual salohiyatni kengaytirish.

1.3-§. STEAM ta'limi orqali kreativlikni rivojlantirishning amaliy yo'llari va samaradorligi

Boshlang'ich ta'lim jarayonida kreativlikni rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir. STEAM yondashuvi o'quvchilarda nafaqat bilim, balki amaliy ko'nikmalar, innovatsion tafakkur va ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvning samaradorligi inson miyasi faoliyatining ikki asosiy qismi - chap va o'ng yarimsharlari bilan bog'liq holda tahlil qilinadi.

O'ng miya (Art yo'nalishi bilan bog'liq):

- ijodkorlik va tasavvurni rivojlantirish;
- His-tuyg'ular orqali emotsional anglash;
- Innovatsion g'oyalarni ilgari surish;
- Tanqidiy fikrlash va moslashuvchanlik;
- Faol muloqot va jamoaviy ishni tashkil qilish;
- Bir vaqtning o'zida turli axborot oqimlarini qayta ishlash qobiliyati.

Chap miya (STEM yo'nalishlari bilan bog'liq):

- Analitik va mantiqiy fikrlash;
- Til qobiliyati, yozish va o'qish ko'nikmalari;
- Axborotni matn holida qayta ishlash qobiliyati;
- Deduktiv va induktiv tafakkur;
- Tanqidiy tahlil va ilmiy xulosalar chiqarish.

O'ng miya faoliyati, asosan, ijodkorlik, tasavvur, his-tuyg'ular, innovatsion g'oyalar ishlab chiqish, tashabbuskorlik va muloqotchanlik kabi jarayonlarga javobgar bo'lsa, chap miya analitik tafakkur, mantiqiy mushohada, til qobiliyati, yozma va og'zaki nutqni rivojlantirish, shuningdek, induktiv va deduktiv fikrlash jarayonlarini boshqaradi. STEAM ta'limi esa ushbu ikki yarimsharning integratsiyalashgan faoliyatini ta'minlaydi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, STEAM asosidagi ta'lim jarayoni:

1. Fanlar bo'yicha emas, balki mavzular bo'yicha integratsiyalashgan ta'limni tashkil etadi. Bu esa o'quvchining o'rganayotgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo'llashga yordam beradi.
2. Haqiqiy hayotda ilmiy va texnik bilimlarni qo'llash imkoniyatini beradi. Masalan, o'quvchilar energiya manbalari mavzusida loyiha ishlab chiqib, kichik texnologik modellar yasashadi.
3. Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va muammolarni hal qilishni ta'minlaydi. Muammoli vaziyatlarda yechim topishga yo'naltirilgan topshiriqlar o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini faollashtiradi.
4. O'quvchilarda o'z kuchlariga ishonchni orttiradi, o'z g'oyalarini himoya qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.
5. Faol muloqot va jamoaviy ishni tashkillashtirish orqali ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantiradi.
6. Texnik fanlarga qiziqishni rivojlantirish va shu sohalarda ijodkorlikni kuchaytiradi.
7. Loyihalarga ijodiy va innovatsion yondashuvlarni amalga oshirish imkonini beradi.

8. Ta'lim va kelajakdagi kasb-martaba o'rtasidagi ko'prikn yaratadi.
9. O'quvchilarni zamonaviy texnologik yangiliklarga tayyorlaydi.

10. STEAM ta'limi maktab dasturiga qo'shimcha emas, balki uni boyituvchi, kreativlikni kuchaytiruvchi kompleks metod sifatida ahamiyat kasb etadi.


STEAM ta'limi turli fanlarni birlashtirib, haqiqiy dunyoning o'zaro bog'liq tabiatini ham aks ettiradi. Ko'pgina real muammolar va innovatsiyalar ilmiy bilimlar, texnologik tajriba, muhandislik tamoyillari, matematik tahlil va ijodiy fikrlashni birlashtirgan multidisipliner yondashuvni talab qilishini tan oladi. STEM - real hayot talablaridan kelib chiqqan holda akademik ilmiy- texnikaviy konsepsiya doirasida integratsiyalashgan holda o'qitishir.

Bugungi kunda ilm-fan va texnikaning jadal taraqqiy etishi, raqamli iqtisodiyotning amaliyotga joriy etilishi, o'quvchilarda o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivasiyani shakllantirish, zamonaviy kasblarni egallash qobiliyatini rivojlantirishda nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash ko'nikmalar hosil qilishi asosiy vazifalardan biridir.

Shunday qilib, STEAM yondashuvi orqali kreativlikni rivojlantirish o'quvchilarning nafaqat intellektual salohiyatini, balki ularning shaxsiy fazilatlarini, o'z fikrini erkin bayon qilish, muammolarga yangicha yondashish va kelajakdagi kasbiy faoliyatiga tayyorlanishini ta'minlaydi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. STEAM ta'lim yondashuvining nazariy asoslarini belgilab bering.
2. Integratsiyalashgan ta'limning didaktik xususiyatlari nimalardan iborat?
3. O'qituvchilarning STEAM yondashuviga tayyorgarlik darajasi ta'lim sifatiga qanday ta'sir qiladi?
4. STEAM asosida kreativlikni rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning o'rni qanday?
5. Tajriba natijalarini ilmiy-statistik tahlil qilish qanday amalga oshiriladi?
6. STEAM asosida kreativlikni rivojlantirishning amaliy samaradorligi qanday isbotlanadi?



II BOB. XORIJIY DAVLATLARDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASINI RIVOJLANISH TARIXI

2.1-§. STEAM ta'lim texnologiyasi- ta'limjarayoni samaradorligini ta'minlashning muhim omili sifatida

Ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash, ta'lim va tarbiyani yuksaltirish, yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Texnologiyalar shunchalik tez rivojlanmoqda va o'zgarib bormoqdaki, maktabgacha ta'limtashkiloti pedagogi har doim ham ular bilan birga bo'la olmaydi. So'nggi o'n yillikda pedagogika har doim ham pedagogga tushunarli bo'lmagan yangi atamalar bilan to'lib bormoqda. Bolalar uchun juda samarali resurs imkoniyatlariga ega bo'lgan ta'lim yechimlari (qurilish to'plamlari, raqamli laboratoriyalar, robot-to'plamlar va o'yinlar, kompyuter o'yinlari majmualari, mualliflik o'yin vositalari, multstudiyalar va boshqalar) turlari ko'payib bormoqda. **Ushbu to'plamlarning** maqsadi: STEAM texnologiyalari haqidagi tushunchalarini aniqlashtirish va eng yaxshi natijalarga erishish.

Respublikamizda oliy ta'limtizimini yanada rivojlantirish, uni xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish, ayniqsa maktabgacha ta'limmuassasalari uchun yetuk va malakali pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonini tubdan takomillashtirish davlat ta'limsiyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limtizimini 2030-yilgacha rivojlantirish KONSEPSIYASI O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni oliy ta'limtizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'limva ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'limsifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib quyidagilar oliy ta'limtizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari hisoblanadi;

- mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish;

-oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish;

-sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta'minlash. Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish bo'yicha quyida tadbirlar amalga oshirilishi belgilangan;

-oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli parametrlarini Investitsiya dasturlari, hududiy va tarmoq dasturlari, vasiylik kengashlari talablari, jahon miqyosidagi texnologik o'zgarishlarni inobatga olgan holda shakllantirish, ta'limyo'nalishlari va mutaxassisliklarini optimallashtirish, bunda STEAM yo'nalishlarini (aniq fanlar, texnologiya, injiniring, ijodiy san'at va matematika) rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish; -mustaqil ta'limsoatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'limolish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'limstandartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish;

- gumanitar va pedagogik yo'nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatiga e'tiborni kuchaytirish, pedagogik ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish, mazkur yo'nalishda tahsil olayotgan talabalarda ta'limjarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, pedagogik ta'lim infratuzilmasini yaxshilash, hududlardagi barcha umumta'lim maktablariga xorijiy tillarni o'zlashtirgan, yuqori malakali professional pedagog kadrlarni yetkazib berish;

Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar;

- xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlari joriy etiladi, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy

ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limtizimiga bosqichma bosqich o'tiladi;

-oliy ta'lim mazmuni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tariladi, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'mini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimi yo'lga qo'yiladi;

-oliy ta'limning investitsiyaviy jozibadorligi oshiriladi, xorijiy ta'limva ilm fan texnologiyalari jalb etiladi;

-talaba-yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbus asosida rivojlantiriladi;

Bu natijalarga erishish esa uzluksiz ta'limning poydevori bo'lgan maktab ta'limtizimidan boshlansagina maqsadga muvofiq bo'ladi chunki 2014-yilda Quddusda bo'lib o'tgan "STEAM forward" xalqaro konferensiyasida quyidagi bayonotlar bildirildi:

- Bolalarni STEAMga jalb qilish. Ushbu ta'limmaktabgacha yoshdan boshlab boshlanishi kerak, shuning uchun dasturlarni bolalar bog'chalariga kiritish kerak.
- Fan tili ingliz tilidir. Agar ilm-fanni o'rganish va olim bo'lishni istasangiz, bu tilni bilishingiz kerak.

- Qizlar uchun Steam-ta'lim dasturlari kerak. Ilm-fan sohasidagi qizlar, ularning tartibligi tufayli, o'g'il bolalar qila olmaydigan narsalarni qilishlari mumkin.

- Science is fun! Ilm-fan quvnoq bo'lishi kerak, u o'quvchilar uchun qiziqarli va o'ziga jalb qiluvchi bo'lishi kerak. Bugungi kunda bilim, texnologiya va malakalar eng muhim raqobat ustunligidir. Bu haqiqiy yutuq, hayot sifatini yaxshilashning kalitidir. Eng qisqa vaqt ichida ilg'or qonunchilik bazasini ishlab chiqishimiz, robototexnika, sun'iy intellekt, uchuvchisiz transport vositalari, elektron tijorat va yirik ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyalarini rivojlantirish va keng qo'llash yo'lidagi barcha to'siqlarni olib tashlashimiz kera- bu rivojlangan davlatlarning strategiyalari. Bu so'zlar STEAM ta'limini dolzarblashtiradi va uning afzalliklarini ta'kidlaydi, xususan:

1. Tabiiy fanlar, muhandislik ijodkorligi, matematika, raqamli texnologiyalar va boshqalarning turli sohalarining o'zaro kirib borishiga asoslangan zamonaviy muammolarni hal qilishda kompleks yondashuv. Ushbu integratsiya kognitiv va badiiy izlanishga asoslangan va o'ziga xos real mahsulotga ega bo'lgan loyiha usuliga asoslangan faoliyat natijasidir.

2. Bolalarni maktabgacha yoshdan boshlab ta'limning barcha bosqichlarida zamonaviy ta'limmuhitiga moslashtirish. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimining barcha darajalari uzluksizligi sharoitida ta'lim muhitining barcha tarkibiy qismlari - mazmuni, texnologiyasi, fan-fazoviy mazmuni, moddiy-texnik ta'minoti - yoshga bog'liq imkoniyatlar mantig'ida ketma-ket va tarkibning murakkabligi.

3. Kognitiv tadqiqot faoliyati jarayonida intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish va ilmiy-texnik ijodkorlikka jalb qilish nafaqat ushbu faoliyat turlariga xos kompetensiyalarni, balki zamonaviy dunyoda qulay o'zini o'zi idrok etishni rivojlantirishga qaratilgan. kelajakdagi hayotda yuqori sifat.

4. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uch bosqichli jarayon sifatida qaraladi;

-zarur ma'lumotlarni olish qobiliyati;

- uni tahlil qilish qobiliyati;

- olingan ma'lumotlarni amaliy faoliyatda qo'llash ko'nikmalari.

5. Ta'limni individuallashtirish bilan sintezda jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish quyidagilardan iborat:

- umumiy maqsadlarga erishish uchun individual aqlli algoritmlarni birlashtirish; - muzokaralar olib borish, savollarni to'g'ri berish, mantiqiy asoslangan faktlar bilan bahslashish va h.k..ya'ni munozara madaniyatini va sublimatsiya qilingan xulosa mahoratini shakllantiradi.

-Umumiy ijobiy natija o'ziga ishonch va jamoaviy ish samaradorligi hissini shakllantiradi. Bundan tashqari, jamoaviy faoliyat jarayonga ham, mehnat natijalariga ham, umumiy va har bir ishtirokchiga qadrli munosabat tarbiyalanadi. 6. XXI asrning bir qator kasb va mutaxassisliklarining birlamchi propedevtikasi, jumladan: axborot texnologiyalari, shu jumladan, axborot xavfsizligi sohasidagi, katta hajmdagi operativ axborotlar bilan ishlashga qodir mutaxassislar; elektron hisoblash tizimlarining

tahlilchilari, muhandislari va operatorlari; mashinasozlik sanoati mutaxassislari; robototexnika, avtomatlashtirish, yadro fizikasi, radiokimyoy, xavfsizlik va yadroviy materiallarni tarqatmaslik sohasidagi mutaxassislar; turli sohalardan texnik bilim talab qilinadigan harbiy kasblar.

7. Texnik ijodkorlikka qiziqishni rivojlantirish. STEM ta'limi bolalarning texnik dizayn va modellashtirishga bo'lgan tabiiy qiziqishidan kelib chiqqan holda "yosh texniklar" bo'limlari va to'garaklari tizimini jonlantirish uchun mo'ljallangan. So'nggi o'n yilliklardagi o'zgarishlar yoqimli, ammo shu bilan birga bizni havotirlantiradi. Ushbu yangi narsalarning ixtiro qilinishi bilan odamlar ilgari duch kelmagan ko'plab yangi muammolar mavjud.

Har kuni yangi ish turlari va hattoki butun kasbiy sohalar paydo bo'ladi, shuning uchun zamonaviy o'qituvchilar o'qitadigan bilimlari va mahoratlari vaqt talablariga javob beradimi yoki yo'qmi deb o'ylashlari kerak. O'zingizning g'oyangizni topishga bilim yordam beradi, ammo haqiqiy ish bu g'oyani haqiqatga aylantiradi. Agar biz an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bilimlarni o'rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytsak, STEAM yondashuvi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtirishga o'rgatadi. Bu bolalarga nafaqat ba'zi bir g'oyalarga ega bo'lish, balki ularni amalda qo'llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi. O'sha haqiqatda ishlatilishi mumkin bo'lgan bilimgina haqiqatan ham qadrlidir.

STEAM ta'lim texnologiyasi- ta'limjarayoni samaradorligini ta'minlashning muhim omili ekanligini bugungi shiddat bilan o'zgarayotgan ilm fan, texnika, sanoat taraqqiyotidan ko'rinib turibdi va buning ildizi ta'limga bog'liq. 1. STEM - bu fan, texnologiya, muhandislik va matematikaning qisqartmasi. Bu fan, texnologiya, muhandislik va matematika sohalarni birlashtirgan ta'lim va rivojlanishning innovatsion yondashuvidir. Bundan tashqari, bu integratsiya-bu real hayotiy ilovalarga asoslangan birlashtirilgan o'quv modelidir. Ko'p yillar davomida talabalar maktabda fan, texnologiya, muhandislik va matematikani to'rtta alohida fan sifatida o'rganishdi.

2. STEAM - bu — S – science, T – technology, E – engineering, A – art va M – mathematics. Ingliz tilidan o'zbek tiliga o'girsak, bu shunday bo'ladi: tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika. Ushbu yo'nalishlar zamonaviy dunyoda eng mashhur bo'lib kelayotganini anglab yetishimiz va yosh avlodga ushbu texnologiyaning samarali metodlaridan foydalanib ta'limberishga harakat qilishimiz kerak. Shuning asosda bugungi kunda STEAM ta'lim tizimi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. STEAM ta'limi yo'nalishi va amaliy yondashuvni qo'llash, shuningdek yuqoridagi barcha beshta sohani yagona ta'lim tizimida integratsiyalashuviga asoslangan. Ushbu yondashuv nazariy va amaliy ko'nikmalarning uyg'unligiga mo'ljallangan. Bola bir vaqtning o'zida bir nechta bilim sohalarni qamrab oladi, ma'lumotlardan foydalanish, o'z tajribasida faktlarni tekshirish imkoniyatini oladi. STEAM-dagi "fan" juda keng va odatda fanning uchta asosiy tarmog'idan ikkitasini qamrab oladi: tabiiy fanlar va rasmiy fanlar.

Ilm-fanning uchinchi asosiy sohasi - bu ijtimoiy fanlar (sotsiologiya yoki iqtisod kabi), ammo ko'p odamlar ularni STEMga qo'shmaydilar. Ushbu sohalar odatda liberal yoki gumanitar fanlar bilan birlashtirilgan.

Tabiiy fanlar - insonni, uning sog'lig'ini, shuningdek butun atrof-muhitni: tuproqni, atmosferani, umuman yerni, kosmosni, tabiatni, barcha jonli va jonsiz jismlarni tashkil etuvchi moddalar va ularning o'zgarishini o'rganadigan fanlardir. Ilmiy tadqiqotlar odamlar uchun har doim qiziq bo'lgan. Kasallikdan qanday xalos bo'lish kerak, tananing ichki qismi nimadan iborat, nima uchun yulduzlar porlaydi va ular nimaga o'xshash, shuningdek, millionlab shunga o'xshash savollar asrlar davomida insoniyatni qiziqtirgan, o'rganish, tadqiq qilish, tajribalarga undagan jarayon. Savollarga javoblar tabiiy fanlar (kimyo, biologiya, fizika, yer haqidagi fanlar, astronomiya...) tomonidan berilgan. Shuning uchun tabiiy fanlar nima degan savolga javob bir xil emas. Bu tabiatni va barcha tirik mavjudotlarni o'rganadigan fanlardir, yani biz har kuni duch keladigan tabiat qonunlarini tushuntiradi. Rasmiy fanlar odatda sohalarni nazarda tutadi mantiq, informatika va statistika. Tabiatshunoslik fanlari bo'yicha o'qitiladigan ko'nikmalar ko'pincha boshqa STEM fan yo'nalishlarida qo'llaniladi. Masalan, mantiq fanlar bilan chambarchas bog'liq

bo'lsa-da, mantiqiy fikrlash texnologiya va muhandislik mutaxassislari uchun ham juda muhimdir.

Xuddi shu narsa ko'pincha ekologiya muhandisligi va ekologik texnologiya kabi boshqa sohalar bilan birlashadigan ekologiya kabi sohaga tegishli.

Texnologiya - (grekcha: „techno— — hunar, usta va „logos— — fan, ta'lim) ilmiy-praktika asosida xom-ashyoni tayyor mahsulotga aylantirishning usullari. Texnologiya (yunoncha techne — san'at, mohirlik, uquv) — sanoat, qurilish, transport, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarda mahsulotlar olish, ularga ishlov berish va ularni qayta ishlash usullari tartibga solingan tizim; shu usullarni ishlab chiqish, joriy qilish va takomillashtirish bilan shug'ullanadigan fan. Har bir sohaning o'ziga xos texnologiyasi bo'ladi: kon ishlari texnologiyasi, mashinasozlik texnologiyasi, qurilish texnologiyasi, qishloq xo'jaligi va boshqalar.

Masalan, qurilish ishlari texnologiyasi bir qancha operatsiyalar yig'indisidan tashkil topgan: yer ishlari (yerni tekislash, kotlovan va transheyalar kazish); poydevor yotqizish; devor tiklash (g'isht terish, panel o'rnatish);

antiseysmik belbog'lar va temirbeton ustunlar ishlash; qavatlararo va tom yopmalarini montaj qilish, tom yopish;

elektr, gaz va suv tarmoqlarini o'tkazish;

Har qaysi operatsiyani o'ziga xos bajarish usullari bor. Masalan, pardozlashda avval devor tekislanadi (mayaklar o'rnatiladi), qora suvoq, keyin toza suvoq qilinadi, so'ngra oqlanadi (bo'yoq beriladi) yoki gulqog'oz (oboy) yopishtiriladi. Amalda texnologik jarayonlar qanchalik puxta ishlangan, tavsiya etilayotgan usullar chuqur tajriba va ilmiy yondashuvga asoslangan bo'lsa, tayyorlanadigan mahsulot (avtomobil, bino yoki inshoot) shunchalik sifatli bo'ladi. Texnologiyaning fan sifatidagi roli va vazifasi mahsulot tayyorlashning eng zamonaviy va samarali usullarini yaratishdan iborat. Fan va texnika rivojlanib borgan sari texnologiya ham yangilanib va o'zgartirib turiladi. Har qaysi sohada texnologiyani ishlab chiqish uchun texnologik hujjatlarini ishlab chiqish, tipaviy texnologik jarayonlar, standartlashtirilgan jihozlar va uskunalardan foydalanishning yagona tartibi bo'lishi lozim. texnologiya- ilmiy bilimlarni amalda sinab ko'rish imkonini beradi. Masalan,

dasturlash, tizimni tahlil qilish va hattoki axborot arxitekturasi “texnologiya” yorlig' ostida qolishi mumkin! Ko'pincha, STEAM ta'limida texnologiyani hal qilish usuli talabalarga texnologiya boshqariladigan dunyoda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni o'rgatishdir. Ko'pgina o'rta maktablarda bu kompyuter dasturlash, veb-ishlab chiqish va ma'lumotlar bazasini boshqarish kabi narsalarni o'rganishni anglatadi. Texnologiya STEAM-ga kiritilgan, chunki tech - bu boshqa STEAM sohalarida yangilik va izlanishlarga imkon beradigan vosita. Masalan, biomedikal muhandislik sohasida yangi texnologiyalarni rivojlantirish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu texnologiyani ilm bilan birlashtiradi va yangi tibbiy muolajalarni ishlab chiqish uchun muhandislik!

Texnologiya STEAMning muhim qismidir, chunki u dunyoni o'zgartirish uchun texnologik bilimlarga, izlanishlarga va rivojlanishga bog'liq bo'lgan boshqa uchta sohaga katta ta'sir ko'rsatadi.

• Muhandislik- resurslar, materiallar bilan ishlashga yordam beradi, tajriba o'tkazishga, atrof-muhitni yaxshilashga o'rgatadi. STEM-dagi “muhandislik” ko'plab turli xil muhandislik turlarini o'z ichiga oladi. Ular aerokosmik muhandislik, biomedikal muhandislik, elektrotexnika, mashinasozlik, sanoat muhandisligi, fuqarolik muhandisligi, kimyo muhandisligi, akustik muhandislik, kompyuter muhandisligi va dasturiy ta'minotni o'z ichiga oladi. Va bu hatto to'liq ro'yxat emas! Muhandislik STEM tarkibiga kiritilgan, chunki muhandislar o'z ishlarini bajarish uchun matematika, fan va texnologiyalarni tushinishlari kerak. Masalan, ko'priklar qurishni olaylik. Matematik va fizikaning kombinatsiyasi bo'lgan ko'priklar qancha og'irlikni ko'tarishi mumkinligini aniqlash uchun qurilish muhandisi murakkab hisob-kitoblarni amalga oshirishi kerak. Keyin ular ko'priklarni hayotga olib kelishi mumkin bo'lgan yangi texnologiyalarni tushinishlari kerak!

- San'at, gumanitar fanlar – ijtimoiy va tarixiy jarayonlarni tushunish, odamlar bilan muloqot qilish yo'li, dizayn, garfika,

- Matematika aniqlik, mantiqiy fikrlash, algoritmlarga amal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Va nihoyat, STEM-dagi “matematik” sof matematikani ham, amaliy matematikani ham anglatadi. Sof matematika bu matematik tushunchalar va

tuzilmalarni o'rganish. Bu matematikaning asosiy g'oyalari! Bunga algebra, geometriya va sonlar nazariyasi kabi sohalar kiradi. Amaliy matematika aynan nimaga o'xshaydi: bu dastur turli STEM sohalarida matematikani. Ba'zi amaliy matematik sohalarga kombinatorika, hisoblash biologiyasi, nazariy informatika va nazariy fizika kiradi. Matematikadan STEM qisqartmasi tugashi mumkin bo'lsa-da, bu aslida fan, texnologiya va muhandislik uchun asosdir.

Mana biz nimani nazarda tutmoqdamiz: agar siz global isish haqida to'plagan ma'lumotlaringizni bilmoqchi bo'lsangiz, matematikadan foydalanishingiz kerak bo'ladi. Agar siz batareyaning yangi texnologiyasi ustida ishlayotgan bo'lsangiz, batareyaning qancha energiya yig'ishini aniqlab olishingiz kerak bo'ladi.

Hatto video o'yinlarni ishlab chiquvchilar va dasturchilar ham matematikaga tayanadi! Tendensiya- nem.tendens,lot.ten-dere, yo'nalmoq, intilmoq.taraqqiyot yo'nalishi, biron narsaga qiziqish,intilish, moyillik. Ma'lum o'y- mulohaza, tasvir yoki asarning asosiy mazmuni, g'oyasi. Nima uchun STEM ta'limi shunchalik mashhur? Shu asrning boshlarida dunyo ilm-fan va eng yangi texnologiyalar sohasida ishlay oladigan olimlarga muhtojligi ayon bo'ldi. Fanlarga asoslangan eski maktab o'quv dasturi endi zamonaviy o'quvchining ehtiyojlarini qondirmaydi. Fizika, tarix, biologiya, matematika va boshqa fanlar hech qanday tarzda bir-biri bilan kesishmaydi, bolaning boshida tarqoq ma'lumotlar bo'laklarini qoldiradi. STEM ta'limi fanlar o'rtasida kuchli, mantiqiy aloqalarni yaratish orqali ushbu muammoni hal qiladi. Bu bolalarga dunyoga global miqyosda qarashga, faoliyatning turli sohalarida qonuniyatlar va o'xshashliklarni payqashga yordam beradi.

An'anaviy yondashuvning xususiyatlari;

- Atrof olam haqida qiziqish bilan o'rganishga intilayotgan bolalar fanlararo yondashuvni talab qiladigan muammolarni hal qilishda qiynaladilar. Bolaning ongida ob'ektlar aniq ajratilgan: hozir biz matematika bilan shug'ullanamiz va undan keyin nutq o'stirish mashg'uloti. Ammo ikkita bilim manbasini bir-biriga bog'lash kerak bo'lganda (masalan, arab raqamlarining kelib chiqishi haqida batafsil aytib berish, rim raqamlari, matematik olimlar), bolalar oradagi tanaffus sabab chalg'iydi, diqqatlari bo'linadi, fikrlashda uzilish bo'ladi.

- Shuningdek, nazariya va amaliyot o'rtasida aniq tafovut mavjud. Qo'llanmalardagi mavzu va faktlar tushunarsiz bo'lib qolmoqda - bola mavzular matni real hayot va tajriba bilan qanday aloqada bo'lishini tushunmaydi. Shunga ko'ra, material ba'zida yomonroq o'zlashtiriladi va xotira katta emas, balki foydasiz ma'lumotlar qatlamlarini saqlaydi. STEAM ta'lim konsepsiyasining paydo bo'lishi

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon ta'lim tizimida fanlarni alohida-alohida emas, balki integratsiya asosida o'qitish g'oyalari keng tarqala boshladi. Ilm-fan va texnologiyalarning keskin rivojlanishi natijasida turli fanlar o'rtasidagi chegaralar tobora yo'qolib, real hayotiy muammolarni hal etishda kompleks yondashuv zarurati yuzaga keldi [9].

Dastlab AQShda 1950–1960-yillarda ilmiy-texnik inqilob davrida integratsiyalashgan ta'lim dasturlari ishlab chiqildi. 2000-yillarga kelib esa san'at (Arts) yo'nalishi ham qo'shib, STEAM ta'lim konsepsiyasi shakllandi [8; 10].

2.2-§. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda STEAM yondashuvining o'ziga xosligi

Integratsiyalashgan yondashuvning nazariy asosini yaratishda quyidagi olimlarning ilmiy g'oyalari muhim o'rin tutadi: J. Dewey (AQSh) – tajribaviy ta'lim nazariyasi asoschisi. U bilimni amaliyot bilan bog'lash, o'quvchilarni hayotiy vaziyatlar asosida faol o'rganishga jalb etishni ilgari surdi. J. Piaget (Shveysariya) – kognitiv rivojlanish nazariyasi orqali ta'limda bosqichma-bosqich bilimlarni integratsiya qilish zarurligini asoslab berdi. L.S. Vygotskiy (Rossiya) – “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi integratsiyalashgan ta'limda hamkorlik va ijtimoiy muloqotning ahamiyatini ko'rsatdi. H. Gardner (AQSh) – ko'p qirrali intellekt nazariyasi asosida insonning turli qobiliyatlarini rivojlantirish zarurligini ta'kidlab, STEAMdagi “Arts” komponentiga nazariy asos yaratdi. S. Papert (AQSh) – konstruktivizm g'oyalarini rivojlantirib, informatika va robototexnikani ta'limga qo'shgan, Logo dasturlash tilini ishlab chiqqan. E. Eisner (AQSh) – ta'limda san'atning o'ri haqida tadqiqotlar olib borib, STEAM yondashuvining shakllanishiga hissa qo'shgan.

Shuningdek, O'zbekistonlik olimlar ham integratsiyalashgan ta'lim metodlarini chuqur o'rganib, milliy ta'lim tizimiga moslashtirish yo'lida qator ilmiy ishlar olib

bormoqda. Masalan, M. Jumayev va A. Xoliqov pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta'limda integratsiyaga alohida o'rin berishgan. G. Nishonaliyeva esa ta'limda fanlararo integratsiya metodlarini ilmiy jihatdan asoslab bergan. R. Mavlonova kreativ yondashuvlar orqali integratsiyaning samaradorligini ochib bergan. Ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallashuvi sababli, 1990-yillarda AQSh ta'lim tizimida o'zgarishlar zarurati paydo bo'ldi. Bu davrda STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) tushunchasi joriy etildi. Uning asosiy maqsadi — fan, texnologiya, muhandislik va matematika fanlarini chuqur o'zlashtirgan mutaxassislar tayyorlash edi. Biroq, 2000-yillarga kelib, bu to'rt fan faqatgina texnik ko'nikmalarni berishi, ijodkorlik va estetik rivojlanishni cheklashi aniq bo'ldi.

AQShda STEAM ta'limining ildizlari 1990-yillarning o'rtalariga borib taqaladi. San-Diego universiteti professorlari Berni Dodj va Tom March 1995 yilda "Kvest texnologiyasi" ni ta'limga joriy etdilar. Bu metodika o'quvchilarni o'yin orqali faol o'rganishga undadi va STEAM yondashuvining dastlabki ko'rinishlaridan biri bo'ldi.

"Kvest texnologiyasi" o'quvchilarni muammolarni hal qilishga, izlanishga va innovatsion fikrlashga o'rgatuvchi interaktiv usul edi. Bu STEAMning asosiy tamoyillariga to'liq mos kelar edi.

2000-yillarga kelib, STEAM dasturlari AQSh maktablarida, ayniqsa STEM sohaslarida yetakchi bo'lishga intilayotgan shtatlarda keng tarqala boshladi. Davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan ko'plab loyihalar amalga oshirildi, bu esa yosh avlodni kelajak kasblariga tayyorlashda muhim rol o'ynadi.

STEM ta'limi birinchi bor Amerikada Massachusetts Texnologiyalar Institutida (MIT) ishlab chiqilgan. Bu mashhur institutning shiori "Mind and hand" – "Aql va qo'l" dir. Massachusetts Texnologiyalar instituti STEM kurslarini ishlab chiqdi va hatto ba'zi o'quv yurtlarida STEM ta'lim markazlarini yaratadi. Avstraliya, Buyuk Britaniya, Isroil, Kanada, Xitoy, Singapur, AQSH ta'lim tizimida keng qo'llanilmoqda. Ta'limning maqsadi ta'lim oluvchilarni ijodiy tafakkurini rivojlantirish va ularni loyihalashtirish asosida o'qitish orqali tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, matematika va san'at fanlaridan samarali foydalanishga

o'rgatishdir. STEM ta'lim quyidagi xususiyatlarga ega: STEM ta'limi binar mashg'ulotlar, loyihalar, o'quv tadqiqotlariga tayanadi.

Avstraliya, Xitoy, Buyuk Britaniya, Isroil, Koreya, Singapur, AQSH kabi ko'plab rivojlangan mamlakatlar STEAM ta'limi sohasida davlat dasturlarini amalga oshirib kelmoqdalar. STEAM-ta'lim dasturi talabalari fizika va matematikadan tashqari robototexnika, dasturlash, o'z robotlarini loyihalash va amalda qo'llashni o'rganadilar. Darslarda 3D-printerlar, vizualizatsiya vositalari va boshqa jihozlar kabi maxsus texnologik laboratoriya va o'quv jihozlaridan foydalaniladi. STEAM texnologiyasi ta'limdan farqli ravishda bilimlarni alohida emas, o'zaro mutanosib holda olib borishni ta'minlab beradi. O'quvchi o'zida nostandart fikrlash, muammoga bir nechta yechim topish va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi va bu uning kelajakdagi faoliyatida juda qo'l keladi STEAM - STEMning asosiy kamchiliklarini hal qilish. Bu fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani birlashtirgan ta'limiy yondashuv. U STEMning asosiy tamoyillaridan foydalanadi va ularni san'at va san'at orqali birlashtiradi. Bundan tashqari, u real vaziyatlarda ijodiy fikrlash va amaliy san'atni o'z ichiga oladi. STEM(STEAM) ta'lim tizimi orqali bolada kreativlik, qunt, qiziquvchalik vo hozirgi kunda eng muhim bo'lgan xususiyat – muammoni hal qilish (problem solving skills) qobiliyati shakllanadi.

Yevropa va Osiyo davlatlari STEAM ta'limini rivojlantirish va uni milliy ta'lim tizimlariga integratsiya qilish borasida sezilarli yutuqlarga erishgan. Yevropada ayniqsa Germaniya, Finlyandiya va Estoniya kabi mamlakatlar STEAM yondashuvini erta yoshdan boshlab maktab dasturlariga joriy etib, o'quvchilarda ilmiy fikrlash, ijodkorlik va texnik ko'nikmalarni uyg'un rivojlantirishga katta ahamiyat bermoqda. Finlyandiya tajribasida fanlararo integratsiyalashgan o'quv dasturlari, loyiha asosida o'qitish va real hayotga mos topshiriqlar orqali STEAM yondashuvi muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Osiyo mintaqasida esa Janubiy Koreya, Yaponiya va Singapur STEAM ta'limiga innovatsion texnologiyalar, raqamli platformalar va sun'iy intellekt asosidagi dars metodikalarini faol joriy etgan. Bu davlatlarda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga qaratilgan strategiyalar orqali

STEAM yondashuvi nafaqat umumiy o'rta ta'lim, balki oliy ta'lim bosqichlarida ham keng tatbiq etilmoqda.

Xorijiy davlatlarda STEAM ta'limining rivojlanishi

Bugungi kunda turli mamlakatlar tajribasi STEAM yondashuvining global ta'lim tendensiyasiga aylanganini ko'rsatadi:

AQSh – STEM konsepsiyasini davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlab, keyinchalik san'at yo'nalishini qo'shib, STEAMni keng tatbiq qilgan.

Yaponiya – “Monozukuri” falsafasi asosida yaratuvchanlik, texnologiya va madaniyatni integratsiya qilgan.

Germaniya – dual ta'lim modeli orqali nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirgan.

Finlandiya – “Fenomen-based learning” modeli asosida fanlarni real muammolar doirasida birlashtirib o'qitmoqda.

Xitoy – innovatsion rivojlanish siyosati doirasida maktablarda STEAM laboratoriyalarini tashkil etmoqda

Yevropa va Osiyo davlatlari STEAM ta'limini rivojlantirish hamda uni milliy ta'lim tizimlariga integratsiya qilish borasida sezilarli yutuqlarga erishgan.

Yevropa tajribasi

- Yevropa mamlakatlari orasida Germaniya, Finlyandiya va Estoniya yetakchi hisoblanadi.

- Finlyandiya ta'lim tizimida “fenomenlarga asoslangan ta'lim” modeli orqali STEAM fanlari integratsiyalashgan holda o'qitiladi. Fanlararo loyihalar, real hayotga mos topshiriqlar va muammoli vaziyatlar orqali o'quvchilarda ilmiy fikrlash, ijodkorlik hamda texnik ko'nikmalar uyg'un shakllantiriladi.

- Germaniyada “MINT” dasturi (matematika, informatika, tabiiy fanlar va texnika) orqali STEAMni erta yoshdan o'qitish yo'lga qo'yilgan. Bu yondashuv sanoat va ishlab chiqarish bilan hamohang bo'lib, o'quvchilarda amaliy tajribani kuchaytiradi.

- Estoniya esa raqamli texnologiyalarni ta'limga keng joriy etgan bo'lib, STEAM dasturlarida axborot texnologiyalari markaziy o'rin tutadi.

Osiyo tajribasi

Osiyo davlatlari orasida Janubiy Koreya, Yaponiya va Singapur tajribasi alohida ahamiyatga ega.

- Janubiy Koreyada STEAM ta'limi 2011-yildan milliy strategiya sifatida yo'lga qo'yilib, innovatsion texnologiyalar va raqamli platformalarga asoslangan o'quv dasturlari ishlab chiqilgan.

-Yaponiyada “Society 5.0” konsepsiyasi doirasida STEAM fanlari sun'iy intellekt, robototexnika va kiber-fizik tizimlar bilan uyg'unlashtirilgan.

-Singapurda esa “Design Thinking” va “Problem-based learning” metodlari asosida STEAM darslari tashkil etilib, kreativlik va amaliy ko'nikmalar rivojlantirilmoqda.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, STEAM ta'lim texnologiyasi bugungi kunda nafaqat ilmiy-texnik bilimlarni o'rgatishning samarali usuli, balki o'quvchilarda kreativ fikrlash, muammolarni hal qilish, innovatsion loyihalar yaratish ko'nikmalarini shakllantirishning ham muhim vositasidir.

- AQSh STEAM ta'limining asoschisi sifatida ilm-fan va texnologiya sohasida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratdi.

- Yevropa mamlakatlari (Germaniya, Finlyandiya, Estoniya va boshqalar) integratsiyalashgan darslar orqali bolalarda amaliy tajribaga asoslangan o'qitishni rivojlantirdilar.


- (Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya) STEAMni milliy innovatsion rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi sifatida qaramoqda.

- Avstraliya va Kanada esa ekologik muammolarni hal qilish, barqaror rivojlanish va ijtimoiy mas'uliyatni o'quv dasturlariga qo'shib, STEAMni kengaytirdilar.

Demak, xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, STEAM ta'limi har bir davlatda milliy maqsad va ehtiyojlardan kelib chiqqan holda rivojlangan. Shu bilan birga, barcha tajribalarda umumiy jihat – fanlarni integratsiyalashgan holda o'qitish, o'quvchilarni kelajak kasblariga tayyorlash va kreativlikni rivojlantirishdir.

Mustahkamlash uchun savollar

1. STEAM ta'lim texnologiyasi birinchi bo'lib qaysi davlatda shakllandi va uning asosiy maqsadi nima edi?
2. Germaniya va Finlyandiya tajribasida STEAM yondashuvining qanday o'ziga xosliklari mavjud?
3. Osiyo davlatlarida (Xitoy, Yaponiya, Koreya) STEAM dasturlarining ustuvor yo'nalishlari nimalardan iborat?
4. Avstraliya va Kanada tajribasida STEAM ta'limi qanday ijtimoiy va ekologik masalalar bilan bog'langan?
5. Xorijiy davlatlar tajribasidan O'zbekiston ta'lim tizimi uchun qanday xulosalar chiqarish mumkin?
6. Sizningcha, STEAM ta'limi o'quvchilarda qanday ko'nikmalarni rivojlantirishga eng katta ta'sir ko'rsatadi?



III BOB. STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA ULARNI NAZARIY VA DIDAKTIK ASOSLARI VA MAKTABGACHA HAMDA MAKTAB TA'LIMDA TUTGAN O'RNI

3.1-§. STEAM ta'limining nazariy va didaktik asoslari

STEAM ta'limining nazariy asoslari bu STEAM ta'limi zamonaviy pedagogik yondashuvlarga tayanadi va o'quv jarayonini integratsiyalashgan, kreativ hamda amaliy shaklda tashkil etishni ko'zda tutadi. Nazariy jihatdan u quyidagi asosiy pedagogik konsepsiyalar bilan izohlanadi:

1. Konstruktivizm nazariyasi (J. Piaget, L. Vygotskiy):

Ushbu yondashuvga ko'ra, bola bilimni tayyor shaklda qabul qilmaydi, balki o'z faoliyati davomida mustaqil ravishda "quradi". STEAM metodikasi o'quvchini faol ishtirokchi sifatida bilim olish jarayoniga jalb etadi va mustaqil fikrlashni rag'batlantiradi. STEAM ta'limi konstruktivizm nazariyasiga asoslanadi. Bu nazariya o'quvchilar yangi bilimlarni mavjud bilimlar bazasi asosida mustaqil ravishda qurishlarini ta'kidlaydi. STEAM loyihalari o'quvchilarga faol ishtirok etish, tajriba o'tkazish va muammolarni hal qilish imkoniyatini beradi.

2. Integrativ ta'lim: Fanlararo bog'liqlikni ta'minlash orqali o'quvchilar bilimlarni turli fanlardan ajratilgan holda emas, balki yagona tizim sifatida qabul qiladilar. Bu yondashuv nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishni osonlashtiradi hamda real hayotiy vaziyatlarda foydalanish imkonini beradi. STEAM fanlarini integratsiyalash orqali o'quvchilar turli fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunadilar. Bu esa, ularning muammolarni kompleks hal etish qobiliyatini rivojlantiradi. Masalan, robototexnika loyihasi fizika, matematika va dasturlashni birlashtirishi mumkin.

3. Amaliy yondashuv (hands-on learning): STEAM ta'limida o'quvchilar nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlaydilar. Tajribalar, tajribaviy loyihalar va interaktiv topshiriqlar orqali bilim olish jarayoni yanada samarali bo'ladi.

4. Loyiha asosida ta'lim (Project-Based Learning): O'quvchilar real hayotdagi muammolarni aniqlash, ularga yechim topish va natijani namoyish qilish jarayonida faol ishtirok etadilar. Bu esa ularda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Didaktik asoslari

STEAM ta'limning didaktik tamoyillari quyidagilardan iborat:

-Fanlararo integratsiya — har bir STEAM komponenti birgalikda qo'llaniladi;

-Faol va interaktiv metodlar — tajribalar, muhokamalar, rolli o'yinlar;

-Loyiha va muammo asosida o'qitish — har bir mavzu amaliy faoliyat bilan mustahkamlanadi;

-Ko'rgazmalilik — maketlar, grafikalar, animatsiyalar yordamida o'rgatish;

-Refleksiya — o'quvchilar o'z faoliyatini tahlil qiladi va xulosa chiqaradi.

STEAM ta'limining didaktik asoslari bu STEAM ta'limi o'z mohiyatiga ko'ra integratsiyalashgan, amaliy va ijodiy yondashuvni talab qiladi. Shuning uchun u klassik didaktikaning asosiy tamoyillariga tayangan holda, zamonaviy ta'lim talablariga moslashtirilgan.

1. Ilmiylik tamoyili

STEAM o'quvchilarni ilmiy asoslangan bilimlar bilan qurollantiradi. Dars jarayonida faktlar, tajribalar va ilmiy izohlar orqali o'quvchilar atrof-muhitdagi hodisalarni chuqurroq anglaydilar.

2. Izchillik va tizimlilik tamoyili

Fanlararo integratsiya o'quv materialini bosqichma-bosqich va izchil o'zlashtirish imkonini beradi. Har bir fan boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq holda beriladi va yagona tizim shakllanadi.

3. Faollik va mustaqillik tamoyili

STEAM jarayonida o'quvchi tayyor bilimni olish bilan cheklanmaydi, balki mustaqil faoliyat, izlanish va tajriba orqali bilimlarni o'zlashtiradi. Bu esa ijodiy tafakkurni rivojlantiradi.

4. Amaliyot bilan bog'liqlik tamoyili

Olingan bilimlar real hayotiy vaziyatlarda qo'llanadi. Masalan, matematika va texnologiya bilimlari muhandislik loyihalarida, san'at esa dizayn va kreativ g'oyalarni ishlab chiqishda qo'llaniladi.

5. Individuallashtirish va differensiallash tamoyili

STEAM o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va tayyorgarlik darajasini hisobga oladi. Har bir o'quvchiga shaxsiy yondashuvni ta'minlash imkoniyati mavjud.

6. Integrativlik tamoyili

STEAMning asosiy didaktik mohiyati – turli fanlarni birlashtirish orqali yaxlit bilim tizimini shakllantirish. Bu jarayon o'quvchining dunyoqarashini kengaytiradi va ularni kompleks muammolarni hal qilishga tayyorlaydi

STEAM Ta'limining Didaktik Asoslari

Loyiha asosida o'qitish

Loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning) STEAM ta'limining asosiy didaktik usullaridan biridir. O'quvchilar real hayotiy muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan loyihalarda ishtirok etadilar. Bu usul ularning tanqidiy fikrlash, hamkorlikda ishlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Muammoli vaziyatlar

O'quv jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish orqali o'quvchilar mustaqil ravishda yechim izlashga undaladi. Bu usul ularning analitik fikrlash, qaror qabul qilish va javobgarlik hissini oshiradi. Masalan, suvni tejash bo'yicha muammoli vaziyat loyiha yaratishga turtki bo'lishi mumkin.

Tajriba va eksperimentlar


STEAM ta'limida tajriba va eksperimentlar muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar tajribalar orqali fan qonuniyatlarini amalda o'rganadilar, gipotezalar tuzadilar va natijalarni tahlil qiladilar. Bu usul ularning ilmiy bilishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

3.2-§. Maktabgacha ta'lim va maktab ta'limida STEAM yondashuvining farqlari

STEAM kompetensiyalari bolalarda erta yoshdan boshlab, ota-onalar uyda osongina tashkil etadigan o'yinlar yordamida shakllantirilishi mumkin. Tuzli xamirdan hunarmandchilik qilib turli shklar yasab, o'yinchoq yaratib, bola birinchi marta uch o'lchamga duch keladi: balandlik, kenglik va uzunlik. Shu oddiygina modellashtirish jarayoni san'atning modellashtirish bilan qanday uyg'unligini ko'rsatadi. Karton konstruktor bolaga turli xil sensorli standartlarni tan olishni, shuningdek dizaynni o'rganishga yordam beradi.

Geokont ijodiy tasavvurni rivojlantiradi va bolalarga makro va mikro makonda yaxshiroq harakatlanishga yordam beradi.

Geokontning muallifi taniqli tarbiyachi Vyacheclav Vadimovich Voskobovich.



Geobord yordamida bolalar maydon va perimetrni, geometrik shakllarni amalda o'rganadilar.

LEGO (Leg Godt - "yaxshi o'ynash") - bu turli xil narsalarni yig'ish va modellashtirish uchun qismlar to'plami bo'lgan o'yinchoqlar seriyasidir. O'yin to'plamlari bir vaqtning o'zida bir nechta vazifalarni bajaradi: ular o'rganish uchun

motivatsiyani oshiradi, texnik savodxonlikni rivojlantiradi va har qanday faoliyatni rejalashtirish funksiyasini takomillashtirishni ta'minlaydi. Fleksagon matematika va origaminging noyob birlashmasi hisoblanadi.



Fleksagon-oddiy qog'ozdan tayyorlangan ajoyib boshqotirma o'yinchoq. Odatdagi A4 formatdagi qog'oz 18mm qisqaradi ya'ni 11 mm ga 21 mm bo'ladi. XX asrning birinchi yarmida o'ylab topilgan maftunkor o'yinchoq, boshqotirma va qiziqarli matematik model. Fleksagonlar (ing.t.fleh,lot.flectere-taklanadi buklanadi,qayriladi, yun. o'voç- burchak) - qog'oz chiziqlaridagi tekis modellar, ma'lum bir tarzda qatlanadi va buklandi. Fleksagonni qatlaganida, ilgari fleksagon dizaynida yashiringan sirtlar paydo bo'ladi,va oldin ko'rinadigan sirtlar ichkariga kiradi.Bu oddiy qo'l bilan mo'jiza yaratish. Robotika to'plamlari bolalarni ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda ijodkorlikka jalb qilishga yordam beradi.



STEAM ta'limi - bu kognitiv faoliyat jarayonida intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish va ilmiy-texnik ijodkorlikka jalb etishga qaratilgan yangi qisman modulli maktabgacha ta'lim dasturi. STEAM bolalarni kuzatish, kashf qilish va tadqiq qilish orqali atrofddagi dunyo haqida bilim hosil qilishlari uchun qiziquvchan bo'lishga va savollar berishga undaydi. STEAM tadqiqotlari bolalarga umrbod ta'lim

o'lishlari uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni beradi. Bolalar kuzatishni, savol berishni va kashf qilishni o'rganadilar. Boshqa bolalar va kattalar o'rtasida hamkorlik rag'batlantiriladi. Ular innovatsion fikrlashga olib keladigan muammolarni hal qilish ko'nikmalarini chuqurlashtiradi.

Maktabgacha ta'limda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish zaruriyati.

Tanqidiy fikrlashni rag'batlantiradi: STEAM ta'limi bolalarni tanqidiy fikrlashga va mustaqil ravishda yechim topishga undaydi. STEAM o'quv dasturlarida tarbiyachi asosiy tushunchani tushuntirgandan so'ng, bolalar ma'lumotlarni turli loyihalarda qo'llash ustida ishlashga taklif qilinadi. Misol uchun, turli qog'ozlardankabutarlar yasang, keyin esa kabutarlarni balandlikka uchiring. Ushbu oddiy STEAM chaqiruvini sizni kabutarlarning havoda eng uzoq turishiga nima sabab bo'lishi haqida o'ylashga undaydi - qanotlarining kattaligi, kaburatning yengilligi yoki boshqa narsa? STEAM ustida ishlash maktabgacha yoshdagi bolangizni yangi g'oyalarni sinab ko'rishga va o'z ijodidan foydalanishga undaydi.

Muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi: Bolalar sinov va xato, izlanish va ijodiy fikrlash orqali yechim topishlari mumkin. Qattiq va tezkor qoidalarni olib tashlagan holda, STEAM bolalarga muammoni hal qilishda tavakkal qilish va an'anaviy usullardan chetga chiqish imkonini beradi. Misol uchun, to'pni juda kichik bo'lgan qutiga joylashtirishning oddiy muammosini ko'rib chiqing.

STEAM o'rganishda o'qituvchilar ko'rsatmalar berish o'rniga bolalarni ijodiy yechimlarni taklif qilishadi: ular to'pni uchirib yuborishi mumkinmi?

Ular kartonni kengaytira oladimi? Amaliy o'rganishni ta'minlaydi: Ular biror narsaning qanday ishlashini yoki qanday qilib qurishni tushunish uchun real hayot stsenaariylarida turli materiallar bilan ishlaydi. Masalan, kichkina bolangizga olma bilan tajriba o'tkazing. Olma suv idishida suzadimi yoki cho'kadimi? Agar yarmini kesib tashlasangiz nima bo'ladi? Agar siz choraklarga bo'lsangiz nima bo'ladi? Farzandingiz olmaning chorak qismini suvda qayiq kabi suzib yurishi uchun nima qilishi mumkin? Muvozanatni saqlab turishi va tushmasligi uchun olma va shox bo'laklaridan qanday strukturani qurish mumkin?

Birgalikda ishlashni rag'batlantiradi: STEAM loyihalari hamkorlikka asoslangan bo'lib, bolalarga bir-biridan o'rganish imkonini beradi. Ular bolalardan aqliy hujum, yechim topish, qaror qabul qilish va mas'uliyatni belgilash uchun jamoa bo'lib ishlashni talab qiladi. Birgalikda ishlash bolalarga bir-birlari bilan muloqot qilishni, tinglashni va qo'llab-quvvatlashni o'rganishga yordam beradi. Ular o'rganadigan yana bir ko'nikma - umumiy maqsadga erishish uchun o'zlarining turli qobiliyatlari va kuchli tomonlarini qanday ishlatishdir. Misol uchun, agar bolalar birgalikda karton ko'prik qurayotgan bo'lsa, bitta bola yaxshi rasm chizishi mumkin, ikkinchisi uni yig'ishni, uchinchisi ko'prikni rang berishni xoxlaydi.

Ijodkorlikni rag'batlantiradi: STEAM bolalarga muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqmasdan o'z tezligida ishlash imkonini beruvchi xavfsiz o'quv muhitini ta'minlaydi. Fanlararo STEAM loyihalari bola miyasining turli qismlarini qamrab oladi va unga muammoga turli prizmalar orqali qarashga yordam beradi.

Masalan, bolangizdan o'yinchoq mashinasini bosib o'tishi uchun kuchli ko'prik qurishni so'rang. Bu faoliyat uning ijodkorligini uyg'otadi - u uyda qanday materiallar to'plashi mumkinligi haqida o'ylaydi va turli materiallar (masalan, bo'sh qutilar, yog'och bloklar va qurilish bloklari) bilan tajriba o'tkazishga harakat qiladi.

Keling, maktabgacha ta'limda STEAM ta'lim texnologiyalarini afzalligini batafsil ko'rib chiqaylik.

- STEAM ta'lim texnologiyalari bolalarni turli mavzularda tadqiqot, kashfiyot va izlanishga undaydi.

- ochiq savollar orqali tadqiqotlarga rahbarlik qilinadi, muammoga yechim topish yo'llari quvnoq bo'ladi.

- STEAM fanlariga (tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika) integratsiyalashgan faoliyat tadbirlari amalga oshiriladi.

- Bolalar va kattalar o'rtasidagi hamkorlik, faol muloqot muhiti vujudga keladi.

- Har bir bolaning fikr almashishini tushunish va qadrlash, mustaqillikni qo'llab-quvvatlashga zamin yaratiladi. - innovatsiya, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantiradi, qiziqishni rivojlantiradi.

- Muhandislik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

- Jamoada ishlash uchun zarur bo'lgan fazilatlarni egallash imkonini beradi.
- Amalga oshirilgan faoliyat natijalarini tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.
- turli yoshdagi bolalarning eng yaxshi kognitiv faoliyatiga hissa qo'shiladi.
- Ta'limga kompleks yondashuv fikrlash qobiliyatlarini eng yaxshi darajada rivojlantirishga yordam beradi va istiqbolli kasbni tanlash uchun katta eshik ochadi.
- bolalarni ilmiy va ijodiy faoliyatga tabiiy va oson jalb qiladi.

Maktabgacha yoshda STEAM bilan ishlashni boshlash uchun nima qilishimiz mumkin?

Oddiy asboblardan foydalaning: biz uyda ombir, bolg'acha yoki belkurak kabi ko'plab vositalardan foydalanamiz. Bolalar bilan turli qushlarning nima yeyishiga qarab turli xil tumshug'lari borligini muhokama qilishingiz mumkin. Farzandingiz turli qushlarning tumshug'iga qanday taqlid qilishini sinab ko'rish uchun uy atrofida oddiy asboblardan qushlar uchun in yasashini buyuring:

Ms; Pelikanlar suvdan baliq ovlashmoqda: suvdan "oziq-ovqat" yig'ish uchun elakdan foydalaning. - Qarg'alar urug'larni yoki yong'oqlarni tumshuqlari bilan chaqishadi: meva danagi yoki yong'oqlarni chaqish uchun bolg'achadan foydalaning. - Hasharotxo'r qushlar hasharotlarni tutib oladi: meva bo'laklarini yeyishda chanchqidan foydalaning. - Burgut ovda o'tkir tirnoqlaridan foydalanadi: non yoki go'shtni tishlashda tishlarimiz sog'lom bo'lishi kerak.

O'yinchoqlar bilan: U o'yinchoqlari bilan o'ynayotganda, uni o'yinchoqlar qanday yasalishi haqida o'ylashga majbur qiling. Uning mexanizimli o'yinchog'i qanday harakat qiladi? Uning batareykali mashinasi oddiysidan nimasi bilan farq qiladi? Qurilish to'plamlari, qurilish bloklari yoki bolalar uchun muhandislik to'plamlari kabi o'yinchoqlarini olish uni o'rganishga undaydi.

Savollarni rag'batlantiring: bolalarga nima uchun, qanday va qayerda savollarni berishga undang. Agar javobni bilmasangiz, uni birgalikda o'rganish va javob topish imkoniyatini qidiring. Mavzu bo'yicha ensiklopediyadan qidiring yoki Internetga kiring, ular siz bilan bunday o'rganish tajribasini qadrlaydi. Chalkashliklarga yo'l qo'ying: STEAM ta'limi nafaqat kitoblardan o'rganish, balki kundalik faoliyatda o'rganilgan tushunchalarni tajriba qilish yoki sinab ko'rishdir. Shunday qilib,

bolangiz tajriba o'tkazayotganda, u uyda tartibsizlik qilishi mumkin. Va u ochiq havoda kashf qilish va tajriba o'tkazishga harakat qilganda, u qo'llari va kiyimlarini iflos qilishi mumkin, unga ba'zida tartibsizlik qilish yaxshi ekanini, keyin albatta tartibga keltirish kerakligini ayting.

STEAM ta'limi har bir bolaga, uning tug'ma qiziqishlari va qobiliyatidan qat'i nazar, foyda keltiradi, chunki har bir bola izlanuvchan va o'rganishga intiladi. Ilm-fan va texnologiya muammolarga yechim topishga yordam bersa, san'at ta'limi fantaziya va ijodkorlikni rag'batlantiradi. Shunday qilib, STEAM ta'limi bolaga har tomonlama bilim olishga yordam beradi. Kelajakda innovatsiya qilish qobiliyati muhim ko'nikma hisoblanadi, ularsiz muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolani STEAM ta'limiga undash uning yorqin kelajagini ta'minlaydi. Agar biz an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bilimlarni o'rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytsek, STEAM ta'limi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtirishga o'rgatadi. Bu bolalarga nafaqat ba'zi bir g'oyalarga ega bo'lish, balki ularni amalda qo'llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi.

E'tibor bering, bu afzalliklar bolaning rivojlanishini kuchaytirishni ta'minlaydi, "bolani har tomonlama tarbiyalash uchun zarur shart" (A. V. Zaporjets). Bola rivojlanishining dastlabki bosqichlarida imkoniyatlar boyligining ahamiyati ayniqsa katta. Bu uning bir yoqlamaligini yengish, moyillik va qobiliyatlarini ochib berish vositasidir. AV Zaporjets nazariyasiga ko'ra, STEAM ta'lim dasturi bolalar faoliyatining o'ziga xos shakllarini maksimal darajada boyitishni o'z ichiga oladi: o'yinlar, kognitiv tadqiqotlar, dizayn, badiiy va estetik, shuningdek, bolalarning biri-biri bilan samarali muloqot qilish imkoniyatini beradi. Har bir bolaning intellektual qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish uchun o'qituvchilar va ota-onalarni maxsus ilmiy va amaliy bilimga ega bo'lishlarini va ijodiy yondashishlarini talab qiladi. Maktabgacha yosh (3 yoshdan 7 yoshgacha) bolaning rivojlanishida sifatli sakrashni amalga oshiradigan juda muhim davrdir. 3 yoshga kelib, bolalarda sezgilar, beixtiyor e'tibor va faol nutq kabi kognitiv jarayonlar allaqachon shakllangan. U dunyoni qiziqish bilan o'rganadi, tabiat va ijtimoiy hayotning eng oddiy hodisalari haqida

to'g'ri fikrlarni modellashtiradi. Faol vosita va o'yin faoliyati, nutqdan foydalanish barcha kognitiv jarayonlarning rivojlanishi uchun katalizator bo'lib xizmat qiladi, shu jumladan idrok: rang va shakl, butun va qism, makon va vaqt, o'zi va atrofdagi odamlar. Bolada pertseptiv analitik-sintetik faoliyatning murakkab turlari rivojlanadi.

Sezgi a'zolari - ko'rish, eshitish, teginish, hidlash va boshqalar tomonidan hosil bo'ladigan pertseptiv jarayonlar (lotincha perceptio - idrok) tufayli bolaga atrofdagi olam rang-barang tovushlar, hidlar, turli xil ranglarda namoyon bo'ladi. Bugungi kunda bilim, texnologiya va malakalar eng muhim raqobat ustunligidir.

1. Tabiiy fanlar, muhandislik ijodkorligi, matematika, raqamli texnologiyalar va boshqalarning turli sohalarining o'zaro kirib borishiga asoslangan zamonaviy muammolarni hal qilishda kompleks yondashuv. Ushbu integratsiya kognitiv va badiiy izlanishga asoslangan va o'ziga xos real mahsulotga ega bo'lgan loyiha usuliga asoslangan faoliyat natijasidir.

2. Bolalarni maktabgacha yoshdan boshlab ta'limning barcha bosqichlarida zamonaviy ta'lim muhitiga moslashtirish. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimining barcha darajalari uzluksizligi sharoitida ta'lim muhitining barcha tarkibiy qismlari - mazmuni, texnologiyasi, fan-fazoviy mazmuni, moddiy-texnik ta'minoti - yoshga bog'liq imkoniyatlar mantig'ida ketma-ket va tarkibning murakkabligi.

3. Kognitiv tadqiqot faoliyati jarayonida intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish va ilmiy-texnik ijodkorlikka jalb qilish nafaqat ushbu faoliyat turlariga xos kompetentsiyalarni, balki zamonaviy dunyoda qulay o'zini-o'zi idrok etishni rivojlantirishga qaratilgan.

4. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uch bosqichli jarayon sifatida qaraladi; -zarur ma'lumotlarni olish qobiliyati; - uni tahlil qilish qobiliyati; - olingan ma'lumotlarni amaliy faoliyatda qo'llash ko'nikmalari.

5. Ta'limni individuallashtirish bilan jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish - Umumiy ijobiy natija o'ziga ishonch va jamoaviy ish samaradorligi hissini shakllantiradi. Bundan tashqari, jamoaviy faoliyat jarayonga ham, mehnat natijalariga ham, umumiy va har bir ishtirokchiga qadrlı munosabat tarbiyalanadi.

6. XXI asrning bir qator kasb va mutaxassisliklarining birlamchi propedevtikasi,

jumladan: axborot texnologiyalari, shu jumladan, axborot xavfsizligi sohasidagi, katta hajmdagi operativ axborotlar bilan ishlashga qodir mutaxassislar; elektron hisoblash tizimlarining tahlilchilari, muhandislari va operatorlari; mashinasozlik sanoati mutaxassislari; robototexnika, avtomatlashtirish, yadro fizikasi, radiokimyo, xavfsizlik va yadroviy materiallarni tarqatmaslik sohasidagi mutaxassislar; turli sohalaridan texnik bilim talab qilinadigan harbiy kasblar.

7. Texnik ijodkorlikka qiziqishni rivojlantirish. STEAM ta'limi bolalarning texnik dizayn va modellashtirishga bo'lgan tabiiy qiziqishidan kelib chiqqan holda "yosh texniklar" robototexnika, STEAM laboratoriya bo'limlari va to'garaklari tizimini jonlantirish uchun mo'ljallangan. STEAM ta'lim olti modul iborat. Har bir modul kompleks yechim orqali STEAM-ta'lim maqsadlarini amalga oshirishni ta'minlaydigan o'ziga xos vazifalarni hal etishga qaratilgan: intellektual qobiliyatlarni ishlab chiqish jarayon tadqiqot faoliyatida va maktabgacha yoshdagi bolalarning ilmiy-texnikaviy ijodiga jalb qilish.

Zamonaviy ta'lim tizimida STEAM yondashuvi bolalarning tafakkuri, ijodkorligi va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Biroq bu yondashuvning maktabgacha ta'lim hamda maktab ta'limida qo'llanilishida o'ziga xos farqlar mavjud. Ularni bilish pedagoglarga o'quv jarayonini samarali tashkil etishda yordam beradi.

1. Maqsadlaridagi farq

- Maktabgacha ta'limda: asosiy maqsad - bolaning tabiiy qiziqishini qo'llab-quvvatlash, atrof-muhitni o'rganishga rag'batlantirish, ijodiy o'yin faoliyati orqali fanlarga kirish imkonini berish.

- Maktab ta'limida: asosiy maqsad - boshlang'ich ilmiy tushunchalarni shakllantirish, muammoli vazifalarni yechishga o'rgatish, fanlararo integratsiyani ongli ravishda tashkil etish.

2. O'qitish usullari

- Maktabgacha ta'limda: o'yin asosida ta'lim, tajribalar, rang, shakl, qum va suv bilan ishlash, Montessori va Reggio Emilia metodlari.

- Maktab ta'limida: loyihaviy ishlash, laboratoriya tajribalari, muammoli vaziyatlar, modellash tirish, dastlabki dasturlash topshiriqlari.

3. Kontent va mazmun

- Maktabgacha ta'limda: tabiat hodisalari bilan tanishish, oddiy savollar ("Nima uchun?", "Qanday?"), ranglar, shakllar, ijodiy mashg'ulotlar orqali STEM fanlarini his etish.

- Maktab ta'limida: massa, uzunlik, vaqt, energiya kabi ilmiy tushunchalar; matematika, texnologiya va san'at integratsiyasi; kompyuter savodxonligi.

4. Bola roli

- Maktabgacha ta'limda: bola – tadqiqotchi, o'yinchi va kashf etuvchi. U asosan o'z qiziqishi bilan tajriba qiladi.

- Maktab ta'limida: bola – faol ishtirokchi va kichik tadqiqotchi. U muammoli topshiriqlarni hal qilishga jalb qilinadi.

5. O'qituvchi roli

- Maktabgacha ta'limda: yo'naltiruvchi va tashkilotchi sifatida bolaga tajribalar uchun sharoit yaratadi.

- Maktab ta'limida: ilmiy tushunchalarni tushuntiruvchi, loyiha rahbari, muammoli vaziyatlarni yaratib beruvchi

6. Natija va samaralar

- Maktabgacha ta'limda: qiziqish va ijodkorlikning uyg'onishi, nutq va muloqot ko'nikmalarining rivojlanishi, atrof-muhitni kuzatishga odatlanish.

- Maktab ta'limida: tanqidiy fikrlash, muammoli vazifalarni yechish, fanlararo bilimlarni amalda qo'llash, keyingi bosqichlarga zarur ilmiy tayyorgarlik.

Maktabgacha ta'limda STEAM yondashuvi
Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun STEAM elementlari o'yin va tajriba asosida beriladi:

- Qurilish konstruktori bilan ishlash orqali muhandislik tushunchalari;
- Ranglar, shakllar va musiqalar orqali san'at asoslari;
- Oddiy tajribalar orqali tabiiy fanlar;
- Interaktiv o'yinlar orqali mantiqiy fikrlash va matematika.

Masalan: "Ranglar bilan tajriba qilish", "Suvda cho'kadi-suzadi", "Qurilish bloki bilan ko'prik qurish" kabi o'yinlar.

Maktabgacha ta'limda STEAM yondashuvi

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun STEAM elementlari o'yin va tajriba asosida beriladi:

- Qurilish konstruktori bilan ishlash orqali muhandislik tushunchalari;
- Ranglar, shakllar va musiqalar orqali san'at asoslari;
- Oddiy tajribalar orqali tabiiy fanlar;
- Interaktiv o'yinlar orqali mantiqiy fikrlash va matematika.

Masalan: "Ranglar bilan tajriba qilish", "Suvda cho'kadi-suzadi", "Qurilish bloki bilan ko'prik qurish" kabi o'yinlar.

Maktab ta'limida STEAMning o'rni

Umumiy o'rta ta'limda esa STEAM yondashuvi chuqurroq va tizimli ravishda qo'llaniladi:

- Fanlararo darslar (masalan, fizika + matematika + texnologiya);
- Robototexnika va kodlash elementlari;
- Loyiha asosidagi ishlar (masalan, ekologik loyiha, maktab bog'i uchun avtomatik sug'orish tizimi yaratish);

Grafik dizayn va raqamli san'at elementlari.

STEAM orqali o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlari, balki real hayotga tayyorlik darajasi ham oshadi.

Maktab ta'limida STEAM – bu:

- Muammolarni hal qilish (problem solving);
- Fanlararo bilimlarni birlashtirib, real masalalarga yechim topish;
- Tajribani yozish, natijani tahlil qilish, loyiha himoya qilish;
- Kichik dasturlar yozish, modellar yasash, grafiklar tuzish.

Xulosa

Maktabgacha ta'limda STEAM

Maktabgacha ta'limda STEAM yondashuvi, avvalo, bolaning tabiiy qiziqishi va ijodiy tasavvurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu bosqichda:

- o'yin asosidagi mashg'ulotlar orqali bolalarda tadqiqotchilik ruhi uyg'otiladi;
- sensor tajriba (rang, tovush, shakl, hid, ta'm) orqali atrof-muhitni anglash kuchayadi;
- sodda tajribalar, kuzatish va savol-javoblar orqali fanlarga dastlabki qadam qo'yiladi;
- ijodiy faoliyat (chizish, yasash, qo'shiq aytish) orqali STEM fanlariga kirish imkoni beriladi.

Demak, maktabgacha ta'limda STEAM – bu o'yin va qiziqish asosida shakllanadigan ijodiy-tadqiqot yondashuvidir.

Maktab ta'limida STEAM

Boshlang'ich va keyingi maktab bosqichida STEAM yondashuvi chuqurlashib, bolalarning fanlararo bilimlarini real hayot masalalariga tatbiq etishga yo'naltiriladi. Bu jarayonda:

- o'quvchilar muammolarni hal qilishni o'rganadi;
- turli fanlar integratsiyasi asosida *amaliy loyihalar ishlab chiqadi;*
- tajribalarni *yozish, natijalarni tahlil qilish* va ularni himoya qilish ko'nikmalarini *shakllantiradi;*
- dasturlash, modellashtirish va grafik tuzish orqali zamonaviy texnologik ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Demak, maktab ta'limida STEAM – bu ilmiy izlanish, tanqidiy fikrlash va texnologik savodxonlikni shakllantiruvchi integrativ yondashuvdir.

Maktabgacha ta'limda STEAM yondashuvi bolalarning tabiiy qiziqishi, ijodiy tasavvuri va ilk tadqiqotchilik qobiliyatlarini shakllantirsa, maktab ta'limida u bilimlarni integratsiyalashgan holda ongli o'rganish, muammoli vazifalarni hal qilish va ilmiy-amaliy faoliyatni yo'lga qo'yishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, har ikki bosqich bir-birini to'ldirib, o'quvchini kelajakda raqobatbardosh, kreativ va innovatsion fikrlaydigan shaxs sifatida shakllanishiga poydevor yaratadi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Maktabgacha ta'limda STEAM yondashuvining asosiy maqsadi nimadan iborat?
2. Maktab ta'limida STEAM yondashuvi qanday ko'nikmalarni shakllantiradi?
3. O'qituvchining roli maktabgacha ta'limda va maktab ta'limida qanday farqlanadi?
4. Maktabgacha ta'limda STEAM yondashuvi qaysi o'yin va faoliyat turlari orqali amalga oshiriladi?
5. Nima uchun maktab ta'limida STEAM yondashuvi "ilmiy izlanish va texnologik savodxonlik"ni rivojlantirish deb baholanadi?


IV BOB. STEAM – BU INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM TEXNOLOGIYA

4.1-§. An'anaviy ta'lim va Steam ta'lim.

An'anaviy ta'lim XVII asrda Yan Amos Komenskiy (1592-1670) "an'anaviy o'qitish" atamasini kiritdi. U maktab ta'limini tashkil etib, sinf dars tizimini, maktabda o'quv yili va uni o'quv choraklariga bo'lish to'g'risidagi tushunchani kiritdi, o'quv kunini qanday tashkil etishni belgilab berdi, o'quv mashg'ulotlarining sinf-dars tizimini nazariy jihatdan ishlab chiqdi va buni amalda qo'lladi. An'anaviy ta'lim quyidagi xususiyatlarga ega:


- an'anaviy ta'limda barcha mavzular bo'yicha qat'iy dars turlari tanlanadi;
- dars mavzusi bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantiriladi, mustahkamlanadi;
- yangi mavzuni tushuntiriladi, mustahkamlanadi, nazorat, topshiriqlar beriladi;
- ta'lim oluvchilar o'qituvchini tinglash va o'zlashtirish, berilgan topshiriqlarni bajarish bilan cheklanadi;
- darsning modul va algoritmlaridan har bir o'qituvchi o'zi qo'llayotgan metodga muvofiq foydalanadi;
- an'anaviy ta'lim to'g'ridan to'g'ri diqqatni jalb qilmasdan yoki tanlab olingan ba'zi bir qismlarga chuqurroq kirmasdan, fanlarning umumiy doirasini qamrab oladi;
- an'anaviy o'quv dasturi ma'ruzasida o'qituvchi sinfda biron bir mavzu haqida gapirishni, ta'lim oluvchilar qaydlarni yozib olishni va keyin olingan bilimlarni test yoki imtihonda qo'llashni o'z ichiga oladi. Muayyan shaxslar uchun an'anaviy sinf tuzilmalari va ma'ruzalar monoton bo'lishi mumkin, bu ta'lim oluvchilarning diqqatini tezda yo'qotishiga olib keladi.

An'anaviy ta'limning umumiy chizmasi:



STEM ta'limi STEM ta'limi birinchi bor Amerikada Massachusets Texnologiyalar Institutida (MIT) ishlab chiqilgan. Bu mashhur institutning shiori "Mind and hand" – "Aql va qo'l" dir. Massachusets Texnologiyalar instituti STEM kurslarini ishlab chiqdi va hatto ba'zi o'quv yurtlarida STEM ta'lim markazlarini yaratdi. Avstraliya, Buyuk Britaniya, Isroil, Kanada, Xitoy, Singapur, AQSH ta'lim tizimida keng qo'llanilmoqda. Ta'limning maqsadi ta'lim oluvchilarni ijodiy tafakkurini rivojlantirish va ularni loyihalashtirish asosida o'qitish orqali tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, matematika va san'at fanlaridan samarali foydalanishga o'rgatishdir. STEM ta'lim quyidagi xususiyatlarga ega:

- STEM ta'limi binar mashg'ulotlar, loyihalar, o'quv tadqiqotlariga tayanadi.
- STEM ta'limi muhitida bilimlarni saqlash muhimdir, ammo ta'lim oluvchilarning ushbu bilimlarni qanday qo'llashi STEM va an'anaviy ta'lim undan ham muhim. STEM nafaqat ta'lim oluvchiga biron-bir mavzu haqida ma'lumot berish, balki o'quvchiga ushbu mavzuni haqiqiy hayotga qanday tatbiq etish va kelajakda undan qanday foydalanish lozimligini ko'rsatishga qaratilgan. Masalan, an'anaviy matematik kurs o'quvchiga tenglamani o'rgatishi mumkin, ammo ta'lim oluvchi ushbu tenglamani haqiqiy hayotdagi vaziyatlarga qanday qo'llashni bilmasligi mumkin. STEM ta'limi o'quvchiga matematik tenglamani o'rgatadi hamda undan fan yoki muhandislik kabi turli sohalarda qanday foydalanish mumkinligiga yo'nalish beradi;
- STEM ta'limi diqqatni jalb qilishga, tanlab olingan mavzuning barcha qismlariga chuqurroq kirishga, fanlarni umumiy emas, balki aynan bir qismini qamrab oladi;
- STEM ta'limi oluvchilarni to'g'ridan-to'g'ri mavzuga tatbiq etilishi mumkin bo'lgan tadbirlarga jalb qiladi, natijada ta'lim oluvchilarning qiziqishi ortib boradi va bo'shliqni cheklaydi;
- STEM ta'limida aynan bir qolip mavjud emas, dars bola shaxsiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak; STEM ta'limining umumiy chizmasi:



An'anaviy ta'lim — bu maktablarda, universitetlarda ko'p yillardan beri qo'llanib kelinayotgan o'qitish usuli. Unda o'qituvchi asosiy bilim beruvchi sifatida ishtirok etadi, darslar ko'proq nazariy ma'lumotlarga, eslab qolishga, testlar va yozma ishlar orqali bilimlarni tekshirishga qaratiladi.

Xususiyatlari:

- Darslar ko'pincha fanlar bo'yicha alohida-alohida o'tadi.
- O'quv jarayoni ko'proq o'qituvchi markazida.
- Ta'limda aniq tartib va qat'iy qoidalar mavjud.
- Amaliyot va ijodiy faoliyatga kamroq urg'u beriladi.

STEAM ta'limi — bu Science (Fan), Technology (Texnologiya), Engineering (Muhandislik), Arts (San'at) va Mathematics (Matematika) so'zlarining bosh harflaridan tashkil topgan ta'lim tizimi. Bu yondashuv fanlarni integratsiyalashgan holda, amaliy va ijodiy faoliyatga asoslangan tarzda o'qitishni nazarda tutadi. Xususiyatlari:

- O'quvchilar bilimlarni faqat nazariy emas, balki amalda qo'llash orqali o'rganadi.
- Loyihalar, tajribalar, ijodiy ishlanmalar orqali o'rganish.
- Fanlar o'rtasida bog'lanish va muammolarni hal qilishga qaratilgan.
- Tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, an'anaviy ta'lim ko'proq nazariy bilimlarni berishga va qat'iy tartibga asoslangan bo'lsa, STEAM ta'lim esa o'quvchilarni faollikka, ijodkorlikka va fanlarni amaliy qo'llashga undaydi. STEAM ta'lim zamonaviy dunyo talablariga javob berib, o'quvchilarda muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash va jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'proq yordam beradi. Shu bois, ta'lim jarayonida STEAM usullarini qo'shish an'anaviy ta'limni yanada samarali qilish imkonini yaratadi.

4.2-§. Binar dars - kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish

Binar dars — bu ikkita nazariy fan yoki kasbiy modullarning tarkibiy qismlari birlashtirilgan o'quv jarayonidir. U fanlararo aloqalarni amalga oshirish shakli hisoblanadi. An'anaviy ta'limdan farqli ravishda binar mashg'ulotda ikki mutaxassis

pedagog (o'qituvchi va amaliyotchi trener) birgalikda ma'lum mavzu bo'yicha ta'lim beradilar. Mashg'ulotda o'qituvchi, amaliyotchi trener va ta'lim oluvchilar o'zaro bog'liq holda faoliyat yuritadilar. Binar darsda bilim, ko'nikma va malakalarni amaliy qo'llash uchun sharoit yaratiladi, ta'lim oluvchilarga o'z ishlarining natijalarini ko'rish, undan quvonch va mamnuniyat olish imkoniyati beriladi. Binar darsni o'tkazishda quyidagi asosiy maqsadlarga erishiladi:

1. Yuzaga keladigan amaliy muammolarni hal qilishda umumiy yondashuvga va o'quv-amaliy faoliyatda ta'lim oluvchilarga yagona talablarning qo'yilishiga rioya qilish
2. "O'qituvchi — amaliyotchi trener — ta'lim oluvchilar" uchlik muloqoti ta'sirida o'quv materialini idrok etishga qiziqish, diqqatli bo'lish va kuzatuvchanlik yanada ortishi, hissiy va mantiqiy xotiraning faollashishi, fikrlashning jadallashishi.
3. Ta'lim oluvchilarda nazariy bilimlarni turli vaziyatlarda qo'llash: nostandart ishlab chiqarish sharoitida, kerakli vaziyatlarda tezkorlik bilan yagona to'g'ri qarorni qabul qilish ko'nikmalarini tarbiyalash.

Binar darsda o'qitishning ko'p tamoyillari amalga oshiriladi, jumladan, quyidagilar eng muhimlaridir:

- ta'lim oluvchilarning ma'lum fanlarga oid u yoki bu bilimlarini amaliy faoliyatga tatbiq etishi; - nazariyaning amaliyot bilan umumta'limning kasbiy ta'lim bilan o'zaro bog'lanishi;
- kasbiy yo'naltirilganlik o'rganilayotgan o'zaro aloqador masalalar, o'quv materiallarda ilk amaliy kasbiy ko'nikma va malakalarga yo'naltirilganligi.

Binar darsning pedagogik mohiyati — o'zaro aloqador fan mavzularini va ishlab chiqarish amaliyotini qorishiq o'rganish.

Binar dars ikki turda tashkil qilish mumkin:

1. Yangi materiallar bilan tanishtiruvchi dars — bu yangi materialni takrorlash orqali o'rganish va tayanch bilimlarni rivojlantirish, yangi materiallar bilan tanishish, aloqalarni mustahkamlash va o'rganilayotgan obyektlarga munosabat bildirishga undovchi mashg'ulot shakli. Mazkur dars turida turli ma'ruza shakllaridan

foydalanish mumkin: hikoya qilish, tushuntirish, yo'riqnoma berish, ko'rgazmali, binar, maslahatli, ma'lumotli, oldindan ko'zlangan xatolar ustida ishlash ma'ruzalari.

2. Bilim, ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish, tizimlashtirish va mustahkamlash darsi – bu egallagan bilimlarni takrorlash va mustaqil ravishda amaliy topshiriqlarni bajarish, asosiy dalil, voqea, hodisalarni tahlil qilish, bajarilgan topshiriqlarning natijasini xulosalash va tizimlashtirish, qo'llash va yangi ilg'or g'oyalarni ishlab chiqishga undovchi mashg'ulot shakli. Bunda faoliyat amaliy mashg'ulot tarzida tashkil etiladi.

Ma'ruza – davomli vaqt ichida o'qituvchi tomonidan katta hajmdagi o'quv materialining monologik bayon qilishi.

Binar ma'ruza – davomli vaqt ichida ikki o'qituvchi (boshqa maktab o'qituvchisi, olim va amaliyotchi trenerlar) va ta'lim oluvchilar o'rtasidagi katta hajmdagi o'quv materialining suhbat asosida bayon qilinishi. Bunda yangi o'quv ma'lumotlar ikki o'qituvchi nuqtayi nazarlarini taqqoslash orqali yoritib beriladi.

Binar ma'ruza va binar dars o'rtasidagi farqli va o'xshash jihatlari

Binar ma'ruza	Binar dars
Binar ma'ruza darsning tarkibiy qismi sanaladi.	Binar dars nostandart mashg'ulotlarning bir turi sanaladi.
10 daqiqaga mo'ljallanadi.	45 daqiqaga mo'ljallanadi.
ikki o'qituvchi (boshqa maktab o'qituvchisi, olim va amaliyotchi trenerlar)	
Amaliyotchi trener nazariy jihatini tushuntiradi.	Amaliyotchi trener amaliy qo'llab, ko'rsatib beradi.

Amaliyotga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari orqali olib boriladigan binar dars mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan muhim jarayonlardan biridir. Amaliyotga yo'naltirilgan vazifalar nafaqat kasbiy, balki akademik intizom va fanga oid hamda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi. Binar dars - kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish omili hal qilish uchun turli sohalaridagi bilimlarni birlashtirishga, bilimlarni amalda qo'llashga imkon beradi. Binar darslar kognitiv faoliyatni tashkil qilish va kasbiy kompetensiyalarni

shakllantirish, olingan bilimlarni amalda qo'llash imkonini beradi. Ta'lim oluvchilarda darslarga qiziqish kuchayadi va o'quv materialini yodlash, tushunish hamda o'zlashtirish tezligi ta'minlanadi. Ushbu darslarda ta'lim oluvchilarning rivojlanishi uchun mulohaza yuritish, muammolarni hal qilish imkoniyati yaratiladi.

Binar dars o'quv jarayonida o'qituvchi va amaliyotchi trenerning hamkorlik faoliyati

O'qituvchi faoliyati	Amaliyotchi trenerning faoliyati
Ta'lim oluvchilarning maqsadli yondashuvi	
Ta'lim oluvchilardan o'tilgan darslarni so'raydi.	Avval ishlab chiqilgan amaliy ishlar sifatini tekshiradi.
O'rganilayotgan mavzu bo'yicha nazariy tayyorlaydi. oluvchilarning javob beradi. savollar Ta'lim savollariga	Mavzu bo'yicha o'quv amaliy ishlar (vazifalar)ni nazariy bilimlarni bajarishda tatbiq etish metodlarini tushuntiradi. O'rganilayotgan amaliy ishlarning bajarish namoyish qiladi. metodlarini
Mashg'ulotning nazariy ma'lumotlarini va trener tomonidan ko'rsatilgan amaliy jarayonlarni sifatli qabul qilishni nazorat qilish	
Ta'lim oluvchilarning bajariladigan amaliy mashqlarni, nazariy bilimlarni amaliyotda to'g'ri qo'llashni (tushunishi) anglashi uchun tavsiya beradi.	Ta'lim oluvchilarga o'rganilgan uslublarni metodlar amaliy va faoliyatda qo'llash jarayoni ko'rsatma beradi.

Yakuniy ko'rsatma berish

Ma'lum mavzu, bo'lim yakunida, umumlashtiruvchi, mustahkamlovchi dars sifatida binar darslarni tashkil etish samara beradi. O'qituvchi va amaliyotchi trenerning ko'z o'ngida ta'lim oluvchilarning bilimidagi bo'shliqlar namoyon bo'ladi.

Binar dars (ikki fanli dars) Bu dars turi bir vaqtning o'zida ikki o'qituvchi yoki ikki fanning hamkorligida tashkil qilinadi. Maqsad – o'quvchilarda fanlararo bog'lanishni ko'rsatish va mavzuni kengroq ochib berish.

Masalan:

- Matematika + Informatika – grafiklar qurish va dasturiy yechimlar.
- Ona tili + Tarix – tarixiy matnlarni lingvistik tahlil qilish.
- Tabiiy fan + Texnologiya – elektr zanjirini tushuntirib, amalda yasash.

Afzalliklari:
- O'quvchilarda fanlararo bog'lanish yuzaga keladi.

- Bir mavzuga ikki xil nazar bilan qarash imkoniyati.

- Qiziqish va motivatsiyani oshiradi.

STEAM yondashuvi

STEAM – bu Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics fanlarini integratsiyalashgan holda o‘qitish.

- Maqsad – nazariy bilimni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, muammolarni hal qilish, kreativlikni rivojlantirish.

- STEAM‘da bitta o‘qituvchi ham mashg‘ulotni olib borishi mumkin, ammo u fanlarni uyg‘unlashtirgan holda loyihaviy dars quradi.

Afzalliklari:

- Amaliyot va nazariya birlashadi.

- Kreativ va tanqidiy fikrlash rivojlanadi.

- O‘quvchilarni kelajak kasblariga tayyorlaydi.

Mezoni	Binar dars	STEAM yondashuvi
Tuzilishi	Ikki fan yoki ikki o‘qituvchi hamkorligi	Bir nechta fan (S, T, E, A, M) integratsiyasi
Maqsadi	Fanlararo bog‘liqlikni ko‘rsatish	Real muammolarni hal qilish, kreativlik
Qamrovi	Asosan 2 ta fan	5 ta asosiy yo‘nalish
Usul	Ko‘pincha ma‘ruza, tahlil, izoh	Loyiha, eksperiment, muammoli topshiriq
Natija	Bilimlarni bog‘lash	Bilimni qo‘llash va yangilik yaratish

Demak, **binar dars** – fanlararo aloqani ko‘rsatishning bir shakli, **STEAM** esa kengroq, loyihaviy va innovatsion yondashuv bo‘lib, u o‘z ichiga binar dars elementlarini ham olishi mumkin.

Mustahkamlash uchun savollar.

1. Binar darslarning an‘anaviy darslardan asosiy farqi nimada va ularning o‘quvchilarda kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi o‘rni qanday?
2. Qanday fanlar o‘rtasida binar dars tashkil etilganda o‘quvchilarda kasbiy yo‘naltirilgan ko‘nikmalar samaraliroq shakllanadi? Misollar bilan izohlang.
3. Binar darslarda o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va jamoaviy ishlash kompetensiyalari qanday shakllanadi

V BOB. BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA STEAM TEXNALOGIYASINI QO‘LLANISHI

5.1-§. Tadqiqotchilik faoliyati – ijodiy tafakkurni o‘stirish

Bugungi kunda ta‘lim tizimida o‘quv tadqiqotchilik faoliyati muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotchilik faoliyati – belgilangan vazifa yuzasidan subyektning (tadqiqotchi) borliq va boshqa subyektlar bilan o‘zaro faol tasir etish jarayoni bo‘lib, bunda subyektning ijtimoiy, axloqiy, intellektual qobiliyatlari rivojlanib boradi. Tadqiqotchilik faoliyatining asosiy maqsadi – ta‘lim oluvchilarda biror o‘quv vazifasiga ilmiy nuqtai nazardan yondashuvni shakllantirishdan iboratdir. Tadqiqotchilik faoliyatining 2 shakli mavjud: ilmiy tadqiqotchilik faoliyati va o‘quv tadqiqotchilik faoliyati. Biz faqat o‘quv ilmiy tadqiqotchilik faoliyati xususida fikr yuritamiz. O‘quv tadqiqotchilik faoliyati – rejalashtirilgan va o‘quv rejasiga mos keladigan muammo yuzasidan ta‘lim oluvchilar tomonidan olib boriladigan faoliyat. O‘quv tadqiqotchilik faoliyati bosqichlar quyidagilar:

1. Masala (muammo)ni ifodalash;
2. Taxminiy yechim – taxmin, faraz;
3. Taxmin va farazlarni kuzatish, tajriba, nazariy tahlil orqali tekshirish;
4. Muammo (masala) yechimi va tekshiruvi;
5. Natijalarni yozuv, rasm, kolleksiya va h.k. shakllarda qayd etish.

Ta‘limga STEM yondashuv tatbiqi O‘quv tadqiqotchilik faoliyati asosida kuzatuv, faraz, tajriba (sinov) va mantiqiy xotima, xulosa chiqarish yotadi. O‘quv tadqiqotchilik faoliyati ta‘lim oluvchiga taalluqli bo‘lgan subyektiv muammoni hal etadi hamda intellektual refleksiyaning ayrim bosqichlari «tashlab ketiladi» yoki yashirin holatda kechadi.

O‘quv tadqiqotchilik faoliyatining 3 tipi mavjud:

1-tip

Ta‘kidlovchi tadqiqot - kuzatish orqali narsalar yoki hodisalarning muhim belgilari (hajm, shakl, o‘lcham, og‘irlik, rangi va boshqalar).

2-tip

Mantiqiy tadqiqot-kuzatishdan foydalanadi va unga tajribani qo'shish orqali hodisalar orasidagi sabab-natijalarni aniqlaydi.

3-tip

Umumlashtiruvchi tadqiqot-kuzatish va tajriba asosida ta'im oluvchilarni hodisalarning qonuniyatlarini ochishga olib keladi.

O'quv tadqiqotchilik faoliyatining 5 fazasi:

1-faza-muammoni aniqlash. Muhim muammomi? Vaqt va kuch sarflashingizga arziydimi? Muammo to'g'ri belgilanganmi?

2-faza- harakat rejasi. Muammoni yechish uchun yangi strategiya va yondashuv ishlab chiqdingizmi?

3-faza – ma'lumot yig'ish. Muammoning yechimini topish uchun qanday ma'lumotlarni yig'ishga harakat qilasiz?

4-faza-ma'lumot tahlili. Ma'lumotdan nimalar o'rganish mumkin? Qanday materiallarga ega bo'ldingiz?

5-faza-kelajakdagi ishlar uchun reja.

Bu izlanish natijasida darsning borishiga qanday o'zgarishlar kiritdingiz? Do'stlaringizga nimalarni tavsiya qilasiz? Ta'limga STEM yondashuv tatbiqi Tadqiqotchilik faoliyatida o'qituvchiga quyidagi talablar qo'yiladi: – ta'lim oluvchilarda o'zlaridagi mavjud g'oya va fikrlarni to'g'ri ifodalash va aniq qilib ayta olishga xohish uyg'otish; – ta'lim oluvchilarni ularga ma'lum bo'lgan tasavvurlarga qarama-qarshi hodisalar bilan to'qnashishlari uchun imkon yaratish; – ta'lim oluvchilarda muqobil tushuncha, mulohaza va taxminlarni aytish ehtiyojini vujudga keltirish; – ta'lim oluvchilarga tajriba ishlarini o'tkazib yoki kichik guruhlarda bahs-munozara o'tkazib, o'z ilmiy farazlarini tekshirib ko'rish va tahlil qilishga imkon yaratish; – hodisalarning keng qamrovli doirasi va vaziyatlarini yangidan tasavvur etish, ularning amaliy ahamiyatini anglash hamda baholash uchun ta'lim oluvchilarga imkoniyat yaratish. Ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish uchun o'quv tadqiqotchilik mashg'ulotlarida ularning yosh xususiyatlariga muvofiq mavzu, topshiriq va manbalar tavsiya etiladi.

- topishmoqlar, jumboqlar, hazillar masalalar, mantiqiy topshiriqlar va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bo'yicha topshiriqlar;

- darslarga ertak qahramonlarini kiritish bilan bog'liq o'yin lahzalari (savol berishga yordam bering, o'rganing, ko'rib chiqing, tadqiq qiling, izohlang va hokazo);

- materialning vizual-majoziy o'yin materiallari bilan aloqasi;

- tadqiqot o'yinlari, fantastik tadqiqotlar;

- sayohat o'yinlari, kashfiyotlarni kashf qilish.

Tadqiqotchilik faoliyati – ijodiy tafakkurni o'stirish omili Tadqiqot ko'nikmalarini va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirish uchun qo'yilgan maqsadga muvofiq keladigan talablarga rioya qilish lozim.

Jumladan:

- maqsadga yo'nalganlik va tizimlilik. Tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni nafaqat sinfda, balki sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ham doimiy ravishda olib borilishi kerak;

- motivatsiya. Ta'lim oluvchilar o'quv tadqiqotchilik faoliyatining mazmun-mohiyatini anglashi, bunda o'z kuchlari va imkoniyatlariga ishonch hosil qilishlari muhim;

- ijodiy muhit. O'qituvchi ish muhitini yaratishga, tadqiqotga qiziqishini qo'llab-quvvatlab turishi kerak.

“Sotsiologik so'rov” tadqiqoti

Bunda o'rta maktab o'quvchilari anketa to'ldirib va tanlagan ijtimoiy ahamiyatga ega mavzu (mavzu adabiyot, tarix, ekologiya kabi fanlariga oid) bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishadi. MS Excel dasturida olingan natijalarni qayta ishlaydilar.

Loyihaning turi: tadqiqot. Rejalashtirilgan natija: turli xil ijtimoiy hodisalarning miqdoriy xususiyatlarini aniqlash, ularni diagramma va chizmalarda tasvirlash. Ta'limga STEM yondashuv tatbiqi Davomiyligi: ikki soatlik dars va uy vazifasini tayyorlash vaqti. Maqsad: so'rovnomalar o'tkazish orqali ma'lumot to'plash ko'nikmalarini rivojlantirish, MS Excel dasturi yordamida natijalarni qayta ishlash uchun mavjud bilimlardan amaliy foydalanish, olingan jadvallardan diagramma

tuzishda o'z-o'zini rivojlantirish, iqtisodiy muammolarni hal qilish. Ushbu tadqiqot ma'lum ijtimoiy jarayonlarni o'rganishni o'z ichiga qamrab olganligi sababli, unga turli soha mutaxassislari jalb qilinadi.

Ta'lim oluvchilarni 3 kishidan iborat guruhlariga bo'lib, alohida topshiriqlar beriladi. Kichik guruhlarda ishlayotgan ta'lim oluvchilar bir-birlaridan tushunmagan narsalarni topishga harakat qiladilar. Guruhning muvaffaqiyati nafaqat o'qituvchi tomonidan berilgan tayyor bilimlarni eslab qolishga, balki mustaqil ravishda yangi bilimlarni egallash va uni muayyan vaziyatlarda qo'llash qobiliyatlariga bog'liq.

Tadqiqot mavzulari turli bo'lishi mumkin: o'qituvchi - ta'lim oluvchi o'rtasidagi munosabat, oila muammosi, bo'sh vaqtni va kundalik ishlarni tashkil etish muammosi, giyohvand moddalar va yoshlar muammosi, sport sohasiga oid muammolar va hokazo. Loyihaning barcha bosqichlaridan o'tadilar, ularning har biri o'z yo'nalishiga mas'uldir va doimiy ravishda o'z o'rtoqlariga ortirgan ko'nikmalarini o'rgatadi. Loyihani himoya qilish darsda, har doim aniq xulosalar va tavsiyalar bilan amalga oshiriladi. Natijalarni namoyish qilish uchun tayyorlangan taqdimotni namoyish qilish mumkin.

Tadqiqotchilik faoliyatida muammoning yechimini topish maqsadida savollar majmui shakllantiriladi. Bu jarayonda yo'naltiruvchi savollarni tuzish muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida STEAM texnologiyalarini qo'llashning eng muhim jihatlaridan biri o'quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirishdir. Tadqiqotchilik faoliyati o'quvchining atrof-muhitni kuzatishi, hodisalarni tahlil qilishi, savol berishi, javob izlash jarayonida mustaqil fikrlashini shakllantiradi. STEAM yondashuvi asosida tashkil etilgan tadqiqotchilik faoliyati quyidagi imkoniyatlarni beradi:

1. Ijodiy tafakkurni rivojlantirish – bolalar oddiy kuzatuvdan tashqari, hodisalarning sabab va oqibatlarini izlashga odatlanadi. Masalan, tabiiy fan darsida o'simliklarning o'sishi uchun yorug'lik va suvning ahamiyati tajriba orqali aniqlanadi.

2. Fanlararo integratsiya – matematika, texnologiya va san'at elementlari birlashtirilgan tajribalar o'quvchilarning bilimlarini kengaytiradi. Masalan, suv aylanishi haqida o'rganayotganda o'quvchilar matematik hisob-kitob qiladi, kichik model yasaydi va jarayonni rasm orqali ifodalaydi.

3. Mustaqil o'rganish ko'nikmasi – o'quvchilar o'qituvchi ko'rsatmasi bilan emas, balki o'z qiziqishi va izlanishlari orqali natijaga erishishga harakat qiladi. Bu esa ularda o'z fikriga ishonch hosil qiladi.

4. Tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish – o'quvchilar tajribalar natijasini tahlil qiladi, xulosalarni baholaydi va muqobil yechimlar haqida fikr yuritadi.

Tadqiqotchilik faoliyatini boshlang'ich sinfda qo'llashda quyidagi bosqichlar samarali hisoblanadi:

- Muammo qo'yish (savol berish, hayrat uyg'otish).
- Faraz ilgari surish (o'quvchining taxmini va o'z fikrini aytishi).
- Tajriba va kuzatuv (oddiy laboratoriya ishi, modellashtirish, eksperiment).
- Natijani qayd etish va taqdim qilish (hisobot, rasm, model yoki og'zaki chiqish).
- Xulosa chiqarish (o'z bilimini umumlashtirish, yangi savollar tug'ilishi).

Demak, boshlang'ich ta'limda tadqiqotchilik faoliyatini yo'lga qo'yish nafaqat bilimlarni mustahkamlashga, balki bolalarning ijodiy tafakkuri, tashabbuskorligi va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa STEAM yondashuvining asosiy maqsadlaridan biri bilan hamohangdir.

5.2-§. Boshlang'ich ta'limda qo'llaniladigan loyihalar

O'quv loyihaviy faoliyat – bilim va malakalarni amaliy qo'llash metodlari asosida model yaratish, tahlil qilish va baholashni nazarda tutuvchi o'qitish jarayonidir.

O'quv loyihaviy quyidagilardan iborat:

- muammoga yo'naltirilgan o'quv tadqiqotini tizimli tashkillashtirish; jamoaviy ishni tashkillashtirish, umumiy yechimlarni topish, kelishish, hamkorlik qilish.
- ta'lim oluvchilarning qiziqishlarini inobatga olish, tadqiq etiladigan muammoni o'zlari tanlashiga va hal etishiga imkon berish: ta'lim oluvchi ilmiy qonuniyatlarni "o'zining tadqiqi" orqali o'rganadi; amaliy va aniq masalalardan umumiy

xulosalarga, tushunchalarga, g'oyalarga hamda yanada yuqori abstraksiyalarga, nazariyalarga qarab yo'naladi; muammo yechimi yo'lida izlanishda fan va matematikadan foydalanadi; mantiq va dalillarga e'tibor qaratadi; muammoning yechimi va muhokamasida iqtisod, madaniyat, tarix, axloq, ekologiya va boshqa sohalar nuqtayi nazaridan yondashadi;

- fan yuzasidan bilimlarini mustahkamlash va rivojlantirishga yordam berish: turli yo'nalishlardan, bilishning turli sohalaridan yechim topish, zaruriy bilimlarga ega bo'lish uchun barcha yo'llardan foydalanish imkonini beruvchi "ochiq" masalalar.

Ta'limga STEM yondashuv tatbiqi taklif etish (Internet, kitoblar, shaxsiy tajriba, eksperimentlar, tadqiqot va b.);

- ta'lim oluvchilarga amaliyotga yo'naltirilgan mustaqil harakatni amalga oshirishi hamda aniq yakuniy natija olishi uchun o'quv muhitini yaratish: o'yin va musobaqa elementlarini kiritish;

bir nechta yechim va "to'g'ri" javob mavjud bo'lgan masala va muammolar taklif etish;

- haqiqiy hayot bilan ta'limning mustahkam aloqasini o'rnatish: tajribalar o'tkazishga, o'z qo'li bilan yaratishga, hayotda foydalaniladigan uskuna va turli vositalarni ushlab va qo'llab ko'rishga imkon berish;

- qo'l ostidagi xomashyo vositasida konstruksiyalash, tasavvur, fantaziyani rivojlantirish va iqtisod, boshqaruv, madaniyat sohasidagi bilimlarni faollashtirish uchun kichik mablag' asosida loyihalar olib borish;

- ta'limga taqdimotlar kiritish (olingan natijalarining jamoa oldida taqdimotini tashkillashtirish),

- mutaxassislar hamda ishtirokchilar bilan qayta aloqa o'rnatish, muhokama qilish, o'zaro baholash.

O'quv tadqiqotchilik va o'quv loyihaviy faoliyatning umumiy jihatlari:

1. O'quv tadqiqotchilik va o'quv loyihaviy faoliyatda ta'lim oluvchilarning qo'shimcha bilimlarga ega bo'lish motivatsiyasi, qiziqishlari va ehtiyojlari shakllantiriladi.

2. Ikkala faoliyatda ham ta'lim oluvchilarning maqsad belgilash ko'nikma va malakalari rivojlantiriladi.

3. Ikkala faoliyat ham o'quv muammoning mazmun-mohiyati asosida tashkil etiladi.

4. Ikkala faoliyatda ham ta'lim oluvchilarga o'z-o'zini baholash va nazorat qilish uchun yetarlicha imkoniyat yaratiladi.

5. Refleksiyani tashkil etishning metodologik zarurati yuzaga keladi.

O'quv tadqiqotchilik va o'quv loyihaviy faoliyatning farqlari

O'quv tadqiqotchilik faoliyati	O'quv loyihaviy faoliyat
Munosabatlar	
Inson-axborot jamiyat	Inson-axborot Inson-tabiati, inson-jamiyat
Maqsadlar	
Kognitiv (bilish) muammolarning yechimi Muammoni yechish (kognitiv (bilish), axborotli, amaliy)	Kognitiv (bilish) muammolarning yechimi Muammoni yechish (kognitiv (bilish), axborotli, amaliy)
Vazifalar	
Kognitiv (bilish): bilimlarni egallash yangi Konstruktiv faoliyat: moddiy voqelik ishlash	Kognitiv (bilish): bilimlarni egallash yangi Konstruktiv faoliyat: moddiy voqelik ishlash
Taxminiy natijalar	
Intellectual mahsulot: subyektiv yoki obyektiv yangi bilimlar Amaliy mahsulot	Intellectual mahsulot: subyektiv yoki obyektiv yangi bilimlar Amaliy mahsulot
Metodlar	
Ilmiy kognitiv: qiyosiy metodlar, analiz, sintez, tasnif, umumlashtirish, induktiv va deduktiv va boshqalar. Amaliy: kuzatish, Kognitiv va amaliy metodlar. Ixtirani konstruktirlash modellashtirish algoritmi, va tajriba, muammoning qo'yilishi, model tuzilishi va uni sinovi.	Ilmiy kognitiv: qiyosiy metodlar, analiz, sintez, tasnif, umumlashtirish, induktiv va deduktiv va boshqalar. Amaliy: kuzatish, Kognitiv va amaliy metodlar. Ixtirani konstruktirlash modellashtirish algoritmi, va tajriba, muammoning qo'yilishi, model tuzilishi va uni sinovi.

O'quv loyihaviy faoliyat bir necha turga bo'linadi:

I. Izlanuvchilik faoliyati xususiyatidagi o'quv loyihalarning turlari:

1. Tadqiqotchilik loyihalari – bu ilmiy izlanish xususiyatiga ega bo'lib, quyidagi ishlarni bajarish va aniqlash nazarda tutiladi: muammoning dolzarbligi va ishlab chiqilganligini; tadqiqotning maqsadi; faraz va vazifalar; muammoni o'rganish usullari.

2. Ijodiy loyihalar – hamkorlik faoliyatida ishlab chiqilgan yangi mahsulotni ijodiy shakldagi (ijodiy hisobot, ko'rgazma, ishlab chiqarish xonalarining dizayni, videofilm, nashriy mahsulotlar – kitoblar, almanax, kompyuter sahifalaridagi jurnal, kompyuter dasturlari va b.) taqdimot. Ijodiy ish guruhi – bu laboratoriyalar, ustaxonalar, konstruktorlik birlashmalari, redaksiyalar va boshqalar.

3. Axborotli loyihalar – o'quv jarayoni yoki boshqa buyurtmachilar uchun muhim bo'lgan axborotlarni yig'ishga yo'naltirilgan faoliyat. [18]

I. Loyihani ishlab chiqish turli manbalardan: monografiya, jurnal maqolalari, gazeta nashrlari, sotsiologik so'rovnomalar, elektron ma'lumotlarni izlash bilan bog'liq. O'quv loyihaviy faoliyatni tashkil etish natijasi – buklet, nashr, Internet sahifasi shaklidagi taqdim etilgan, tanlab olingan, tahlil qilingan, umumlashtirilgan, tizimlashtirilgan axborotdir.

II. Qo'llash sohasiga bog'liq ravishda o'quv loyiha turi: Ishlab chiqarishga oid (texnikaviy) va ijtimoiy loyihalar. Bunda ishlab chiqarishning ijtimoiy tomonlarini (boshqaruv, uy joy sharoitini yaxshilash va boshqa muammolarni) takomillashtirish uchun muhim bo'lgan muammolarni hal etish nazarda tutiladi. III. Muammoni ishlab chiqish xususiyati bilan muvofiqlikdagi loyihalar:

1. Nazariyaga va amaliyotga yo'naltirilgan loyihalar. Bunda kasb ta'limi yo'nalishidagi ta'lim oluvchilar pedagogika tarixi fanida tarbiyaga bo'lgan yondashuvlarni o'rganish asosida ijodiy guruhlarda o'zlarining shaxsiy tarbiyaning konsepsiyalarini ishlab chiqadilar.

2. Amaliy xususiyatdagi loyihalar. Bunda aniq amaliy, ya'ni maktab yoki aniq o'qituvchining buyurtmasi bo'yicha muammoni hal etishga yo'naltiriladi (uslubiy loyiha). Bu loyihalar bitta loyihada o'z aksini topishi ham mumkin. Masalan:

“Menejment” fani bo'yicha mashg'ulotda bajarilgan nazariy loyiha va ishlab chiqarishning tashkiliy madaniyatini tadqiq va tahlil qilishga yo'naltirilgan loyiha “Savdo do'konini maxsuslashtirish va savdo korxonasi tashkiliy madaniyati” videofilmini tayyorlash bilan olib boriladi va bu o'quv materiali sifatida qo'llaniladi.

IV. O'quv fanlari integratsiyasiga bog'liq ishlab chiqiladigan loyiha turlari:

1. Bir fan doirasida loyiha – bunda loyiha bir fan doirasida amalga oshiriladi.

2. Fanlararo loyiha – bunda bir necha fanlar materiali asosida amalga oshiriladi.

Ta'limga STEM yondashuv tatbiqi

3. Fan tashqarisidagi loyiha – aniq fan doirasidan tashqarida kasblar bilan bog'liqlikda amalga oshiriladigan loyihalar nazarda tutiladi.

O'quv loyihaviy faoliyat bosqichlari quyidagilar:

Tayyorgarlik bosqichi: loyihaga kirishish, loyiha faoliyatini tashkil etish va rejalashtirish – auditoriya ishi. Loyihani bajarish bosqichi: auditoriyadan tashqari.

Yakunlovchi bosqich: loyiha taqdimoti, o'quvchilar mahsuloti va loyiha faoliyatining baholanishi, loyiha faoliyati refleksiya – auditoriya ishi. O'quv loyihalarni shakllantirish quyidagicha: Loyihada yetakchi faoliyat: tadqiqot, amaliy

yo'naltirilgan, axborotli. Fan jihatdan mazmunli soha: mono-loyiha (bir bilim sohasi doirasida), fanlararo loyiha.

“Yil fasllari” loyihasi

Bu loyihada sinf ta'lim oluvchilari botaniklar rolidagi chiqishadi va “O'quv yili davomida tabiatda qanday o'zgarishlarga uchraydi” savoli yuzasidan izlanishadi. Daraxtlarda bo'ladigan o'zgarishlarni kuzatib, o'z kuzatuvlarini yozib, belgilab boradilar, o'zgarishlar haqida ma'lumot yig'adilar. Shundan so'ng Internet orqali xorijiy mamlakatdagi do'stlari bilan tajriba almashishadi, o'z kashfiyotlarini tabiiy o'zgarishlar bilan qiyoslaydilar.

“Kasrlar” loyihasi

Ushbu loyihada ta'lim oluvchilar atrofdagi kishilarning kunlik hayotlaridagi masalalarni hal qilishda kasrlarning ahamiyatini anglashga harakat qilishadi, masalan, “Oshpaz kasrlardan foydalanadimi?” savoli ustida izlanishadi.

“Fizika” loyihasi

Loyihada ta'lim oluvchilar yo'ldagi havf-xatar faktori haqida ma'lumot to'playdilar. Bunda ular kunlik hayotimizda harakat qonunlari haqidagi bilimlarni tushunish va qo'llashni o'rganadilar. Shuningdek, ta'lim oluvchilar mahalliy yo'l nazorati xodimlaridan mavjud havf-xatar faktorlari haqida ham ma'lumot yig'ishadi. Shahar yo'llari loyahasini tuzuvchilardan olingan ma'lumotlar asosida hududlarning xavfli yo'llarini o'zgartirish bo'yicha taklif kiritish uchun o'rganadilar.

"Harakatdagi matematika" loyihasi

Loyihada chiziqli tenglamalarni tushuntirish uchun sinf ta'lim oluvchilari matematika va raqsnı birlashtirishadi. Har bir raqs musiqaga xoreografik tarzda moslashtirilgan 9 ta tenglamadan iborat. Ta'lim oluvchilar o'z raqslarini videoga olishadi yoki rasmga tushirishadi va ota-onalar va sinfdoshlari uchun taqdimot tayyorlashadi.

"Kriminalistika" loyihasi

Ta'lim oluvchilar matematik va sud-tibbiy loyiha ustida ishlashadi. Guruhlarda, jinoyatni ochish, qaror qabul qilish uchun dalil to'plash, tekshirish, tahlil qilish maqsadida ilmiy-tadqiqot metodini qo'llaydilar. "Jinoyat" o'z sinflarida sodir bo'lgan. "Sizga aytingqchiman" loyihasi Mazkur loyiha matn ustida ishlash metodlarini umumlashtirish va chuqurlashtirish uchun 10-sinf o'quvchilariga tavsiya etiladi. Ushbu turdagi mini-loyiha informatika, rus tili, ona tili va adabiyot darslarida qo'llanishi mumkin. Ammo bunda murakkab vazifa beriladi: yaratilgan loyiha giper tuzilishga ega bo'lishi, material diqqat bilan o'rganilishi, xulosalar aniq chiqarilishi kerak.

Ushbu loyiha ishini bajarish o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalarni egallashga imkon beradi:

- fayllarni yaratish va saqlash uchun asosiy menyu parametrlaridan foydalanish;
- sarlavhalarni turli shriftlardan foydalanib ajratib ko'rsatish;
- chizmalar, diagrammalar va jadvllarni matnga kiritish;
- rasmlarni tayyorlash uchun maxsus dasturlardan foydalanish.

Loyiha ustida ishlash 3-4-soat darslarga mo'ljallanadi.

Dastlabki bosqich - tayyorgarlik bosqichi sanaladi. Bunda loyiha bir nechta gazetalarni ko'rib chiqish va gazetarlar kabi bosma nashrlarning umumiy xususiyatlarini aniqlashdan boshlanadi. Keyin kelajak gazetaning maketi tuziladi. Ikkinchi bosqichda o'quvchilar unga matn yaratish uchun ekran sahifasini tayyorlaydilar.

Uchinchi bosqichda o'quvchilar tegishli buyruqlar yordamida maqolalar, fotosuratlar, rasmlar va boshqalarning hajmini belgilaydilar.

Ular uyga vazifa sifatida quyidagilarni bajaradilar: har bir maqola uchun ajratilgan o'lchamlarni hisobga olgan holda gazetaga joylashtiriladigan maqolalarning matnlarini yozing.

To'rtinchi bosqich sarlavhalarni loyihalashga bag'ishlanadi. Uning maqsadi har xil shriftlar bilan mustaqil tanishish va sarlavhani diqqatni tortadigan darajada shakllantirish, gazetaga matnni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish.

Beshinchi bosqich - bu maqolalar to'plami. Ushbu bosqichda o'quvchilar hujjatni tahrirlash, matnni bir fayldan boshqasiga o'tkazishni o'rganish qobiliyatini kuchaytiradi.

Oltinchi bosqichning maqsadi - rasmlarni tayyorlash, shu jumladan o'quvchilarni brauzer bilan tanishtirish.

Yettinchi bosqichda (chiziqnlarni yig'ish) maqsadi bu matn muharririning xizmat imkoniyatlaridan foydalanish (imlo, so'zlarni yozish, matnni formatlash, belgilarni almashtirish va hk), rasmni ko'chirish va hajmini o'zgartirish, matnni o'zgartirish qobiliyatini kuchaytirish, maqola matnini unga ajratilgan joyga to'g'ri joylashtirish.

Oxirgi bosqich - bu turli xil xizmat opsiyalaridan foydalangan holda matnni tuzatish va gazeta holiga keltirish. Tajriba shuni ko'rsatadiki, bunday loyiha ishlarini yakunlagan o'quvchilar mustaqil ravishda deyarli har qanday ishni matn muharririda bajarishlari mumkin. Shu bilan ona tili, adabiyot, tarix va informatika fanini (gazeta qaysi mavzuga oidligini inobatga olgan holda boshqa fanlarni) integrasiyasi ta'minlanadi.

Loyiha asosida o'qitish. STEAM ta'limining markaziy komponenti bu amaliy, loyihaga asoslangan ta'limdir. Bolalar o'zlarini qiziqtirgan masalalar bo'yicha

maxsus loyihalar ustida ishlashadi. Ularga maqsad to'g'risida qaror qabul qilish va unga erishish uchun qanday ko'nikmalarni o'rganishni xohlashlarini tanlash tavsiya etiladi, bu ularga turli usullarni kashf qilish va tajriba qilish imkonini beradi. Badiiy komponentning qo'shilishi matematika va dasturlash kabi 66 murakkab mavzularni yanada qulayroq qiladi va aqliy jihatdan qo'rqitmaydi. An'anaviy STEM loyihalaridan farqli o'laroq, asosiy e'tibor faktlar yoki ma'lumotlarni olish yoki tahlil qilish emas. Loyihalar bolaning to'g'ri yoki noto'g'ri javob berganligi emas, balki ijodkorlikni qadrlaydigan sub'ektiv mezonlar bo'yicha baholanadi. Bu usul bolaning ta'lim sayohatini qo'llab quvvatlaydi va ijodiy ifodasini rivojlantiradi.

L. V. Vygotskiy, A. V. Zaporozets, L. A. Venger va boshqa taniqli mahalliy psixolog va o'qituvchilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlari, shu jumladan texnik fanlar bo'yicha rivojlanishi amaliyotda shaxsiy manfaatdor ishtirokida eng samarali amalga oshiriladi. Shuning uchun "Robotexnika" o'quv modulining asosini kognitiv izlanish vaziyatini yaratishga qaratilgan amaliy ijodiy loyihalar tashkil etadi. O'quvchi robotni ixtiro qiladi, uni yig'adi, dasturlaydi va oxir-oqibat uni tengdoshlari va kattalar bilan birgalikda o'ynash, raqobat asosida yoki muayyan qobiliyatlarni namoyish qilish uchun ishlatadi. Loyihalash jarayonida mashinalar, konstruksiyalar va turli xil texnik vositalar yaratiladi (namuna, berilgan parametrlar yoki nazariy kontseptsiya asosida). Ish jarayonida eskizlar, chizmalar, chizmalar tuziladi, hisob-kitoblar amalga oshiriladi.

Dizayn turi - modellashtirish. Har qanday ob'ektga yoki u haqidagi ma'lumotlarga yo'naltirilganda uning to'liq yoki qisman o'xshashligi yaratiladi. Bunday holda, materiallar juda boshqacha bo'lishi mumkin, asosiysi, model bino, yo'l, samolyot yoki kema bo'lsin, asl ob'ektning muhim xususiyatlarini aks ettiradi. Nihoyat, modelga asoslanib, maket yaratiladi - ob'ektning miniatyura nusxasi. Loyihalar bilan STEAM

STEAMni guruhingizga integratsiya qilishning bir usuli bolalarga qaratilgan loyihalardir. Misol uchun, Boshlang'ich sinf o'quvchilari yil bo'yi urug'lar va o'simliklarning o'sishini o'rganishga juda qiziqishadi O'quvchilarning manfaatlarini

qo'llab quvvatlash uchun maktab yer maydonchasida urug' ekishni rejalashtirish, parvarish qilishni loyihalash taklif qilinadi. Bir necha hafta davomida bolalar o'simliklarni o'rganishdi va birgalikda o'z bog'ida nima ekishni tanlashdi. Ular rejalashtirishni tugatgandan so'ng, turli urug'larni ekishdi va urug'lar ochiq havoda ko'karish uchun yetarlicha katta bo'lgunga qadar ularni guruh xonasida maxsus tuvaklarda parvarish qilishdi. Keyin tarbiyachi xoxlagan ko'ngilli ota-onalarni ham jalb qilib bolalar o'simliklarni muntazam ravishda kuzatib borishlari va ularga g'amxo'rlik qilishlari uchun o'yin maydonchasida kichik gulzor yaratadi.

Yozda va kuzda bolalar o'z o'simliklariga g'amxo'rlik qilishadi; o'simliklarning o'sishini o'lchashadi va qayd etishadi; o'zlari yig'ib olgan o'tlar, sabzavotlar va gullar haqida boshqalar bilan suxbat qilishadi. Ushbu loyihada bolalarning tajribasi urug'larni saralash va ekish bo'yicha tabiiy bilimni talab qildi, tasviriy san'atni birlashtirdi; urug'larni ekish va parvarishlash texnologiyasi qo'llanildi; va jamoada hamkorlikda ishlash muammolarni tadqiq qilish, loyihalash, rejalashtirish, o'lchash va kuzatishni qayd etish uchun STEAM jarayonlari namoyon bo'ladi.

Loyiha va rejalashtirishning mohiyati.

O'quvchilarda bilim olish faoliyatining yaxlit rivojlanish tizimini yaratish va atrofimizdagi dunyoni tubdan idrok etish imkonini beradigan tizimli integratsiya jarayonini ta'minlash maktabgacha ta'lim tizimidagi har bir tarbiyachining vazifasidir.

Loyiha - bu kattalar tomonidan maxsus tashkillashtirilgan va bolalar tomonidan bajariladigan, ijodiy ishlar bilan yakunlanadigan faoliyatlar majmui. Maktabdagi loyiha qisqa muddatli (bir yoki ikki kun) va uzoq muddatli bo'lishi mumkin (mavzuga qiziqish yo'q bo'lguncha, bir oygacha davom etishi mumkin). Bundan uzoqqa cho'zish joiz emas, chunki o'rganilayotgan ob'ektga qiziqish yo'qoladi. Har qanday loyiha bolalar, tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik samarasidir. U turli xil bilim sohalarida bilim olish qiziqishini rivojlantirish, muloqot ko'nikmalarini va axloqiy fazilatlarini shakllantirishga imkon beradi. Loyihada ishtirok etish bolaga uning ahamiyatligini, tadbirlarning to'liq ishtirokchisi etib his

qilishiga yordam beradi va "men o'zim", "qilaman", "qila olaman" pozitsiyalarini mustahkamlashga yordam beradi.

O'quvchilarda turli tadbirlarda o'zlarini namoyon qilish, umumiy guruhdagi ishlarga hissa qo'shish, individuallikni namoyish etish, guruhda ma'lum bir mavqega ega bo'lish imkoniyatiga ega. U.X.Kilpatrik yuqori darajada mustaqillikka ega ushbu daqiqada umumiy manfaatlar birlashtirgan bir guruh bolalar tomonidan "chin yurakdan" bajarilgan har qanday faoliyatni loyiha deb hisoblagan. Amerikalik tarbiyachining fikriga ko'ra loyiha usulidan foydalanish nafaqat bolani kelajakdagi hayotga tayyorlaydi, balki hozirgi hayotni tushunishga yordam beradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida loyihaviy uslubning afzalliklari:

- uning asosida bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirish rivojlanish usullaridan biridir (tadqiqot ko'nikmalari, savol berish va ularga javob topish ko'nikmalari, ma'lumotni topish va undan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish)

- ta'lim jarayoni sifatini yaxshilaydi;

- ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi;

- tarbiyachilarning kasbiy mahoratini oshirishga yordam beradi.

Har qanday loyihaning markazida tadqiqot izlanishini talab qiladigan muammo bo'ladi. Loyihaning majburiy shartlaridan biri bu bolalarning mustaqilligi (tarbiyachining ko'magi bilan, bolalar va kattalar bilan birgalikda ijodi).

Loyihaviy tadbirlar tufayli faoliyatning har bir bosqichida bolalarning mustaqillik darajasi o'sib boradi, bolalarda o'zini -o'zi tushunish va bilim olish faoliyati ko'nikmalari shakllanadi.

Loyihaviy usulda ta'lim faoliyatining tarkibi:

- Kirish qismi: o'yin holatini yaratish (muammoli vaziyat, maqsadni belgilash, uning yechimini topish uchun bolalarning faolligini rag'batlantiruvchi har qanday turtki).

Bolalar faoliyatini tashkil qilish uchun har qanday mashq bo'lishi mumkin). Loyihaning g'oyasi hatto "ertalabki davra"ni o'tkazish jarayonida paydo bo'lishi mumkin.

- Asosiy qism: muammoli vaziyatning yechimlarini loyihalash. Uni amalga oshirish. Bolalarga dasturning turli bo'limlari mazmuniga asoslangan muammoni hal qilish

uchun zarur bo'lgan yangi bilimlar beriladi yoki bolalar o'zlari izlanishlar, kashfiyotlar orqali bilimga ega bo'ladilar, natijada teatr tomoshasi, qandaydir qo'l ishi, maket, kitobcha, kollaj, guruh albomi, devor gazetalari, do'stga sovg'alar, ko'rgazmalar va boshqa mahsulotlar tayyorlanadi.

- Ish faoliyatini tahlil qilish.

Umumlashtirish, yakunlash

Loyihalash — mo'ljallangan ob'yektlar (apparat va asboblari, bino va inshootlar, yo'l va ko'priklar, mashina va jihozlar, samolyot va kosmik kemalar, radiopriyomnik va televizorlar, telefon va kompyuterlar, kiyim-bosh va poyabzallar, mebellar hamda boshqa turli-tuman mahsulotlarning yangi xillari va namunalari)ni qurish va yaratish uchun ularning loyihalarini tuzish va chizish jarayoni.

Fan va texnikaning barcha sohalarida qo'llaniladigan iqtisodiy va texnikaviy hisob-kitob, smeta tuzish, chizmachilik va chizmalarni ko'paytirish amallarini o'z ichiga oladi, chizmalar asosida ko'pincha ob'yekt (bino, mashina va boshqalar)ning maketi tayyorlanadi. Biror bir ob'yektni individual (yakka tartibda) va tipaviy (ommaviy tartibda) loyihaalsh mumkin. Biror ob'yektni Loyihalashda standartlashtirilgan detallar, agregatlar, uzellar va me'yoriy hujjatlardan keng foydalaniladi.

Yer sayyorasida 7 milliard odam yashaydi. Har bir inson yangi loyiha asoschisi bo'la oladi. Va ma'lum bo'lishicha, insonlar tomonidan qilingan ixtirolar soni ortib bormoqda. Misol uchun, papirus birinchi marta Misrda ixtiro qilingan - qog'ozga o'xshash qadimiy material. Keyin kompyuter paydo bo'ldi, bu esa axborot bilan turli operatsiyalarni bajarish imkonini berdi. ROBOT eng so'nggi va aql bovar qilmaydigan ixtirolardan biridir. Maishiy robotlar, o'yinchoq robotlar, harbiy robotlar, tarbiyachirobotlari mavjud. Ular tibbiyotda, qurilishda, fanda qo'llaniladi. Odamlar har kuni yangi texnologiyalarni yaratishda davom etmoqdalar. Insoniyat taraqqiyotidagi navbatdagi qadam - bu butun koinotni o'rganishga imkon beradigan kosmik kemalar. STEAM ta'limi - bu bolalarni juda yoshligidan texnik jihatdan rivojlangan zamonaviy dunyoga professional ravishda tayyorlash imkonini beruvchi

innovatsion ta'lim dasturi: ulkan ma'lumotlar oqimini tezda boshqarishni va olingan bilimlarni amaliyotda samarali qo'llashni o'rgatadi.

Loyiha dasturlari maktabgacha o'quvchilarning noyob yosh potentsialidan maksimal darajada foydalanishga, uni muayyan vakolatlarni rivojlantirishga va kelajakdagi intellektual elitani: olimlar, muhandislar, kartograflar, dasturchilar, koderlar, logistiklar, tahlilchilar va boshqalarni tayyorlashga yo'naltirishga qaratilgan.

Ushbu loyiha doimiy o'zgaruvchan muhitda yashashni o'rganishga yordam berishga chaqiradi: paydo bo'layotgan kasblarni o'zlashtirish, ijtimoiy muammolarni yengish, ixtiro qilinadigan texnologiyalardan foydalanishni ko'zda tutadi. Loyiha ushbu bosqichlarda amalga oshiriladi:

- loyiha topshirig'i,
- loyiha yechimi va loyiha sinovi.

Loyiha topshirig'ida bo'lajak ob'yektni qurishning shart-sharoitlari va maqsadga muvofiqligi asoslanadi va uning tafsilotlari belgilanadi. Loyiha yechimida bo'lajak ob'yektning rejasidan tortib toki tayyor holigacha bo'lgan ishlar belgilab olinadi. Loyiha sinovida tayyor loyiha maxsus tuzilgan dastur asosida tekshiriladi.

Hozir Loyiha jarayonini avtomatlashtirishga ayniqsa keng e'tibor berilmoqda. Bunda tashkiliy-texnikaviy vositalar, elektron-hisoblash mashinalari, kompyuterlar, avtomatika vositalaridan foydalaniladi. Bu vositalar majmui "inson va mashina" tizimini, ya'ni avtomatlashtirilgan loyiha tizimini tashkil qiladi. Bu tizim insonni murakkab va sermehnat hisoblash, qiyin jadvallarni tuzish ishlaridan ozod qiladi, loyihani ancha tezlashtiradi.

Ma'lumki, o'qitish jarayoni boshqariladigan jarayondir. Tarbiyachi pedagogik texnologiya qonuniyatlariga ko'ra maqsad, faoliyat, natija yo'nalishida amalga oshirib, ya'ni ta'lim natijasini oldindan ko'ra olish qobiliyatiga ega bo'lishi, o'qitish o'qitish masalalarini va ularni hal etish texnologiyasini loyihalash qonuniyatlari bilan yaqindan tanish bo'lishi lozim. Loyihalangan texnologiya dars mavzusiga ajratilgan vaqt doirasida joriy etilib, tanlangan qo'shimcha ma'lumotlar bolalar kuchiga, bilim darajasiga, yosh va individual xususiyatlarga mos kelishi kerak. Shuningdek, o'qitish

o'qitish jarayonida axborot texnologiyasi va texnik vositalaridan foydalanish samaradorligini oshiruvchi didaktik materiallarni ishlab chiqish va qo'llash malakasini tarbiyachi o'zida shakllantirgan bo'lishi lozim. Bu albatta, o'qituvchidan ijorkorlikni, yangilikni ang'ay olish va undan aniq foydalana olish qobiliyatiga ega bo'lishni talab etadi.

Buning uchun o'quvchi ko'z o'ngida doimo nimani o'qitish? Kimni o'qitish? va qanday o'qitish? muammosi turishi kerak bo'ladi. Amalga oshirilmaydigan har qanday fikr yoki g'oyani loyiha deb atash mumkin emas. Bu o'ziga xos mexanizm, uning maqsadi belgilangan maqsadga erishish va rivojlanishni amalda amalga oshirishdir. Shunday qilib, loyihaning xususiyatlari;

- Loyihalash jarayoni uchun ma'lum bir boshlanish sanasi mavjud.
- Loyihani ishlab chiqish bosqichlari tugagandan so'ng, taqvim yoki hujjatlarda, agar mavjud bo'lsa, ishni tugatish sanasini qayd etishingiz yoki yakuniy natijani taqdim etishingiz kerak.

- Dizaynning yakuniy natijasi yangi, ilgari noma'lum bo'lishi kerak. To'liq o'ziga xoslikka erishish shart emas. Natijada loyihada ishlaydigan jamoa a'zolari uchun kashfiyot bo'lishi kifoya.

Loyiha bosqichlari: umumiy xususiyatlari Loyihalarning turlari ko'p bo'lsa-da, ularning har biri ma'lum bir sxema bo'yicha amalga oshiriladi. Umuman olganda, dizayn jarayoni quyidagicha bo'ladi:

Maktabda STEAM ta'lim faoliyati quyidagi tamoyillarga amal qilishi kerak:

